

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**ABDULLAYEV SHAMSHOD TO‘YCHIYEVICH**

**BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI XALQ MUSIQA  
SAN‘ATI ORQALI AXLOQIY TARBIYALASHNI  
SHAKLLANTIRISH**

5141600-boshlang‘ich ta‘lim va tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar p.f.n.,dots.Yusupov X.Yu.

Bitiruv malakaviy ishi maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil «\_\_» maydagi majlisida muhokam qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №\_\_).

Kafedra mudiri

p.f.n.,dots.Doniyev B.B.

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2014 yil «\_\_» iyundagi majlisida himoya qilindi va «\_\_» balga baholandi (bayonnoma №\_\_).

YADAK raisi

p.f.d.,prof. Muslimov N.

A‘zolari

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**5141600-boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi**

**MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI XALQ  
MUSIQA SAN'ATI ORQALI AXLOQIY  
TARBIYALASHNI SHAKLLANTIRISH**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: Abdullayev Shamshod  
Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. Yusupov X. Yu.**

**Samarqand - 2014**

## MUNDARIJA:

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Boshlang'ich maktab bolalarini xalq musiqa san'ati orqali axloqiy shakllantirish.....</b>	<b>6</b>
<b>1.1. San'at vositalari bilan o'quvchi tafakkurini oshirish yo'llari.....</b>	<b>6</b>
<b>1.2. Boshlang'ich maktabda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari.....</b>	<b>15</b>
<b>1.3. Boshlang'ich maktabda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari.....</b>	<b>22</b>
<b>II bob. Buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyning san'at sohasidagi asarlari.....</b>	<b>34</b>
<b>2.1. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda muomala madaniyatining o'rni.....</b>	<b>34</b>
<b>2.2. Boshlang'ich maktab bolalarini raqs san'ati bilan tanishtirish.....</b>	<b>43</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>46</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>50</b>

## KIRISH

*Mavzuning dolzarbligi.* Milliy dasturning qabul qilinganiga 17 yil bo'ldi. Bu davr mobaynida ta'lim tizimi butunlay isloh qilindi, dasturda ko'rsatilgan vazifalar birin-keyig bajarildi, ijrosi ta'minlandi. Maqsad chinakam barkamol avlodni tarbiyalash, jahon standartlariga javob bepradigan mutaxassislarni tayyorlash. Anna shu narsani pirovard maqsad sifatida ko'rsatgan holda, Prezidentimiz «Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglatish, yerkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obo'li o'rin yeggalashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin», - deb alohida ta'kidlagan yedi<sup>1</sup>

Xalq ijodiyoti haqida fikr yuritganimizda, albatta o'tmish ajdodlarimizning bizgacha qoldirgan mumtoz meroslarini o'rganishda bu ahamiyatli xalq ijodiga e'tiborimizni yuksaltirish, o'tmish tariximizda yashab ijod etgan allomalarimizga bo'lgan hurmat-ehtirom hamda bu merosni avaylab asrash kabi muqaddas burch namoyon bo'lishi muqarrardir. Sizlarga ma'lumki, tarixiy manbaalarda hozirgi O'zbekiston zaminida yashovchi xalqlarning eramizdan avvalgi V-IV asrlardagi boy og'zaki ijodi haqida ma'lumotlar mavjud. Albatta, siz ibtidoiy jamiyat davrini ham eslashingiz mumkin. Masalan, ibtidoiy jamiyatda yashagan insonlar hali yozuvni bilmagan bir vaqtda o'z fikr mulohazalarini, o'y va qarashlarini imo - ishora hamda og'zaki so'z iborasi bilan bayon etishga harakat qilganlar. Hayotiy sharoit hamda turmush tarzi ana shu xalqlarning og'zaki ijodini paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki ijod haqida ayrim ma'lumotlarga e'tiborimizni karataylik.

Og'zaki ijod deganda biz uning asosiy xususiyati - s o' z deb, ya'ni so'z san'ati asosida jonli ta'riflash, isbotlash hamda bayon etishni tushunamiz. Xalq og'zaki ijodi xalq, qabila, elat, urug' yoki ma'lum bir guruhning o'ziga xos bo'lgan uslub va usullaridan tashkil topadi. Albatta bunday og'zaki ijod bir o'rinda professional - kasbiy bo'lmagan ijod hisoblansada, shu bilan birga u usha mansub xalqning milliy mafkurasi hamda hayot tarzini aks ettirishga uning psixologiyasi,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юқоридаги манба.

ijtimoiy hamda ma'naviy madaniyat qiyofasini ochishga harakat qilgan. Xalq og`zaki ijodini aks ettiradigan asarlar asriy - ijodiy jarayon desak hech bir mubolag`a bo`lmasa kerak, chunki u og`izdan - og`izga, davrdan - davrga, ustozdan shogirdga o`tib keladigan jarayon. Bu ijod bir mavhum holda saklanib qolmasdan har bir davrning turmush tarzi, maishiy sharoitiga qarab yanada rivojlanib, yangicha shakl va xususiyatlarga tayangan holda yuksalib boradi. Xalq og`zaki ijodi o`zining asosiy belgilovchi nom **f o l k l o r** bilan ifodalab keladi. Asli folklor ingliz tilidan olingan so`z birikmasi bo`lib, u - **folk** - xalq, **loriye** - bilim, donolik demakdir. Bu atama fan olamiga 1846 yilda ingliz arxeologi va tarixchisi Uilyam Jorj Toms tomonidan kashf etilgan bo`lib, 1880 - 1890 yillarda yer yo`zini boshqa mamlakatlarida qo`llanila boshladi. Folklor - mehnatkash xalq ommasining badiiy ijodiy faoliyati, ommaning mehnat tajribasi jarayonida toboro takomillashib, shakllanib boradigan she'riyat, musiqa, teatr, raqs, me'morchilik, tasviriy va milliy bezak san'atidir. Xalq ijodi o`zining yaratilishini she'r, musiqa, raqs, teatr, bezak san'ati, arxetektura - me'morchilik san'atiga mansub bo`lgan tosh va yogoch o`ymakorligi, ganch va sopol naqshkorligi, suyak va kulolchilik, kashtado`zlik va zargarlik va shunga o`xshash bir qancha san'at turlarini o`zida aks ettirib keladi. Xalq ijodiyoti jahonning barcha xalqlarida qadimdan rivojlanib kelgan. Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida sinfiy jamiyat shakllangach, mehnat taqsimoti natijasida professional - kasbiy, "yuksak" san'at asta sekin ajralib chiqadi, katta iqtidor va qobiliyatga ega bo`lgan maxsus kishilar shu bebaho, yuksak san'atga ixtisoslashadilar. Albatta bular professionallardir, o`z kasbining mutaxassislaridir. Shunisi yanada xarakterliki, ayniqsa an'anaviy qo`shikchilik ijrosidagi ko`rinishlarda xalq og`zaki ijodi janrlarining ko`pgina ijodkorlari o`zlari yaratgan asarlarini o`zlari ijro etadilar, uning ovozidan eshitib o`rgangan boshqa kishilar shu asarga o`z qobiliyati hamda mahoratiga yarasha yangicha talqin berib, ijroga o`zicha yangilik kiritib takomillashtiradilar yoki bo`lmasa, boshqacha ko`rinish va nusxada, yangicha variantni kashf etadilar, ko`pchilik xollarda kayta ishlaydilar. Bunday ko`rinishdagi ijodiy maxsulni **b a d i x a** yoki **b a d i x a – g u y l i k** deb atab kelinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti insonlarni, o‘quvchilarni axloq ruhida tarbiyalash, ularning vatanga sadoqatli bo‘lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga cheksiz hurmat bilan qarash kerakligi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy merosini qadrlashimiz to‘g‘risida ko‘plab fikrlar bildiriladi.

Prezidentimiz hamda allomalarimizning vatan haqidagi, axloq to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi kun yoshlarini ana shunday axloqli qilib tarbiyalashimiz bu faoliyatni ilmiy-pedagogik ta’minlash masalalarini amaliy hal qilishga kuchli turtki bo‘ladi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlar doirasida mazkur masalaning hali maxsus o‘rganilmaganligidan, mamlakatimizda yoshlarni odob-axloqli qilib tarbiyalashga tobora o‘shib borayotgan mazkur zaruratidan kelib chiqib tadqiqotimiz mavzusini “Boshlang‘ich maktab bolalarini xalq musiqa san’ati orqali axloqiy tarbiyalash” deb nomladik.

***Tadqiqotning maqsadi*** – Boshlang‘ich maktab bolalarini xalq musiqa san’ati orqali axloqiy tarbiyalash, elga, yurtga sadoqatli bo‘lish, mustaqil mamlakatimizning haqiqiy jonkuyar o‘g‘il-qizlari, kerak bo‘lganda jonini fido qiluvchi fidokor bo‘lib yetishishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish.

***Tadqiqot obyekti*** – Boshlang‘ich maktab bolalarini xalq musiqa san’ati orqali axloqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi tarbiyaviy jarayon.

***Tadqiqotning predmeti*** – Boshlang‘ich sinf bolalarini xalq musiqa san’ati orqali axloqiy tarbiyalash.

***Tadqiqotning vazifazi***- obykti va predmetidan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

1. Axloq tuyg‘usini, axloq tushunchasi pedagogik mohiyatini nazariy asoslash;
2. Axloq tushunchalarini boshlang‘ich maktablarida tashkil qilishning, undan keyin esa katta shu muassasalarda axloq tushunchasini o‘quvchilarga yanada chuqurroq singdirishni tashkil qilishning pedagogik-psixalogik xususiyatlarini ochib berish;

3. Boshlang'ich maktab bolalarini xalq musiqa san'ati va musiqa mashg'ulotlarida axloqni shakllantirishni, qadimiy urf-odatlar va madaniy me'roslar orqali o'quvchilarda axloq tuyg'usini shakllantirish ishlarining pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

***Tadqiqotning ilmiy yangiligi:***

- Boshlang'ich maktab bolalarini xalq musiqa san'ati orqali axloqiy tarbiyalash qay darajada ekanligi o'rgannildi va tahlil qilindi, axloq tuyg'ularini oilada, boshlang'ich ta'lim muassasalarida qay yo'sinda shakllantirish bo'yicha tafsiyalar ishlab chiqildi.

- Tajriba tadqiqot maydonchasi sifatida Samarqand nevyblfub 33-evevnf]kbv vfrnf,b tanlab olindi. Pedagogik eksperimentda 31 ta o'quvchi, 7 nafar tarbiyachi, 10 ta ota-onalar ishtirok etdilar.

Tadqiqot ishimizning tarkibiy tuzilishi:

Kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

***Tadqiqotning metodologik asosini:***

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Prezident asarlarida belgilab berilgan dasturiy g'oyalar, xalq pedagogikasi va ma'rifatparvarlarimizning ma'naviy-axloqiy, *axloq* tushunchasi haqidagi fikrlari tashkil qiladi.

Muammo doirasida tajriba-sinov ishlarini olib boorish quyidagi *ilmiy tadqiqot metodlari* yordamida amalgam oshiriladi:

**1. Pedagogik kuzatuv metodi.**

Maskur metoddan o'quvchilarni axloq ruhida tarbiyalash jarayoni kuzatish asosida tadqiqot ishi uchun zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarni qo'lga kiritish maqsadida foydalaniladi.

**2. So'rovnoma-anketa metodi.**

Ushbu metod o'quvchilarni axloq ruhida tarbiyalashni tashkil etish borasida mavjud dalillash nazariy va amaliy malumotlarni boyitish uchun xizmat qiladi.

### **3. Suhbat metodi.**

Maskur metodda vaziyatni yanada oydinlashtirish Boshlang'ich ta'lim muassasalarigacha maktab o'quvchilarini axloq tushunchasi to'g'risidagi fikrlarini o'rganish bu borada yagona xulosaga kelish, shuning shart-sharoitlarini o'rganish maqsadida foydalaniladi.

### **4. Qiyosiy tahlil metodi.**

Ushbu metod o'quvchilarni axloq ruhida tarbiyalashning mavjud holatini aniqlash tarbiya jarayonini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlarning samaradorligini belgilash, shuningdek tajriba-sinov ishlarining natijalarini qiyosiy o'rganish imkonini beruvchi tadqiqod obyekti bo'lgan maktabning tarbiyachi va o'quvchilarini nazorat hamda tajriba guruhi sifatida ikki guruhga ajratish va ular tomonidan qayt etilgan ko'rsatkichlarni taqqoslash maqsadiga xizmat qildi.

### **5. Pedagogik tajribalarni o'rganish metodi.**

Maskur metod ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari bilan tanishish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida qo'llaniladi.

### **6. Matematik-statistika metodi.**

Maskur metodda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan tajriba sinov ishlarining samaradorligini isbotlash maqsadida foydalaniladi.

## **Birinchi bob**

### **BOSHLANG'ICH MAKTAB BOLALARINI XALQ MUSIQA SAN'ATI ORQALI AXLOQIY SHAKLLANTIRISH**

#### **1.1. San'at vositalari bilan o'quvchi tafakkurini oshirish yo'llari.**

**B a d i x a** - xalq og'zaki ijodi an'analari asosida tuykisdan, birdaniga aytilgan so'z, she'r yoki kushik. Jahon Xalqlari ijodida uchraydigan an'ana. Muayyan asarni ijro yoki kayta ijro etganda ijodkorning unga kiritgan ijodiy o'zgartishlari. Badixa san'atning barcha turiga xos bo'lib, tur va janrlar xususiyatiga kura turli ko'rinishlarda namoyon buladi. Badixa deganida, ko'p xollarda she'riy ta'bga ega, so'zga chechan kishilarning tayyorgarliksiz, tusatdan, kandaydir ichki tugyon bilan aytgan jozibali so'zlari, satrlari tushuniladi. Lekin xar kaday badixa yuksak tajriba va iqtidor bilan boglik. Baxshilar, askiyachilar, masxarabozlar, ertakchilar san'atida bu yorokin namoyon buladi. Xatto Xalq og'zaki ijodining ayrim janrlari tulaligicha badixaguylik asosida ijro etib kelinadi (masalan; askiya).

Kuyida "Vodillik kelin" kino - filmidan lavxani e'tiboringizga xavola etamiz.

Xalq badiiy ijodi janrlari orasida badixa san'ati qadimdan yuksak kadrlanib kelgan. Pulkan, Islom shoir, Fozil Yuldosh ugli, Ergash Jumanbulbul ugli va boshqa baxshi - shoirlar, Yusufjon kizik, Amin buva, Juraxon Sultonov, Abdulxay Maxsum Kozokov va boshqa so'z ustalari ijodida badixa asosiy urin egallab kelgan. Yozma adabiyotda esa badixa asosan mushoira tarzida yaratilgan. Badixalar yaratish va aytish ayniqsa Alisher Navoiy zamonida tarakkiy etganligini ham bilamiz. Badixa san'ati ijodkorlari o'z an'alarini **b a d i x a g u y l i k**, ya'ni erkin tarzda ijro etilgan yoki ijod kilingan badiiy asarning o'ziga xosligi bilan ifodalanadi. Muayyan shakl, janr, uslub va boshqalarning ijodiy tartib - koidalari asosida, ya'ni mavjud elementlarning yangi tarzda o'zaro boglanishi natijasida vujudga keladi. Bunday ijodiy maxsul turli san'at turlari (teatr, raqs, musiqa, poeziya)da o'z aksini topgan. Badixaguylik san'ati ijodkordan yukori mahorat, badiiy saviya - nutk san'ati va madaniyatiga xoslikni talab kiladi. Xalq ijodi

hozirgi kunimizda ham o`z samarasini yukotgani yuk. Davr takozosi bilan ko`pgina janrlari yukolib ketgan bulsada, mustakillik yillari davomida yangidan - yangi janr va turlar vujudga kelmokda.

Hozirgi kunimizda folklor professional san`at turlariga asos bo`lganligi sababli professionallar ham uning rivojiga ta`sir kursatib, uni boyitib kelmokda. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, folklorning jahon madaniyatiga ta`siri kuchaydi, ayrim yukolgan janrlar tiklandi. Bizning mamlakatimizda Xalq ijodining janrlari tarakkiy etib, badiiy xavaskorlik ishlarining rivojlanishga sharoit yaratildi. Bunga Prezidentimiz Farmoniga kura xar yili respublikamizda utkaziladigan an`anaviy "O`zbekiston - Vatanim manim" kushiklar kurik - tanlovi bayramona tadbiri yakkol misol bula oladi. Bu kushik bayramlari Xalqimiz ichidan chiqkan iqtidorli, ijodiy qobiliyatga yetgan yoshlarni qo`shikchilik hamda musiqa ijodidan baxramand kilish, yangidan yangi musikiy asarlar yaratish, yosh ijodkorlarni professionallik darajasiga kutarishdek oliyjanob ishga amal kilinmokda. Albatta bunday tadbirlarning moxiyati hamda ahamiyati urinli ekanligi hammamizga ma`lum bo`lishi kerak. Xalq ijodi janrlari ichida Xalq poetik ijodi aloxida urin tutadi. Bu janr inson nutki shakllanishi bilan yo`zaga kelgan. Kishilik badiiy tafakkurining turli shalklarini o`z ichiga olgan Xalq poetik ijodi namunalari ibtidoiy inson faoliyati bilan boglik bo`lib, diniy, mifologik karashlar, boshlangich ilmiy bilimlar, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarni aks ettirgan. Birok qadimgi folklor namunalari bizgacha yetib kelmagan bulsada, uning turli tasavvur va karashlardagi poetik ijodning ayrim ildizlari va qoldiklari saklanib kolgan. Masalan, Fargona vodiysida 1939 yilda utkazilgan arxeologik eskpedisiya natijasida Soymalitoshdan topilgan koya rasmlarda kuyosh, shudgor kilish jarayoni aks ettirilgan. Bu rasmlar miloddan 2 - 2,5 ming yil ilgari toshda uyib ishlangan Xalq san`ati namunalaridir.

Jamiyatda sosial tabakalanishning kuchayishi natijasida og`zaki badiiy ijodning guruh va tabakalar manfaatini ifodalovchi tur va shakllari paydo buldi. Birok, og`zaki poeziyaning umumiy taraqqiyotida mehnatkash Xalq ommasining poetik ijodi xal kiluvchi rolni bajarib kelgan. Xalq poetik ijodining namoyondalari:

Yozuvning yo`zaga kelishi bilan Xalq poetik ijodi asosida adabiyot paydo buldi, shu bilan birga adabiyot o`zining asosiy manbai hisoblangan folklordan deyarli axloqiy tushunchalar va shakllarni oldi. Natijada jamiyatning umumaxloqiy talabi, extiyoji o`zok asrlar davomida fakat adabiyot bilangina emas, balki Xalq poetik ijodi bilan boglandi.

Xalq poetik ijodining turli janrlari xar xil ijodkorlar faoliyati bilan boglik. Folklor namunalarini yaratish va ijro etishda o`ziga xos professionallik yo`zaga kelgan. Baxshilar (dostonchilar), ertakchilar, askiyabozlik, kizikchilar, dorbozlar san`ati rivojlangan professional san`at bo`lib, uni egallash uchun bulgusi ijodkor maxsus tayyorgarlik kurishi muayyan ustozdan ta`lim olishi zarur bo`lgan.

Doston namunasi

Xalq poetik ijodi milliy madaniyatning tarkibiy kismi sifatida juda katta ijtimoiy, ma`rifiy, goyaviy - tarbiyaviy va axloqiy kimmatga ega. Folklor - professional san`at turlari - adabiyot, teatr, musiqa, kino, televideniye va boshqalar taraqqiyotida muxim urin tutadi.

Endigi so`z, hurmatli talaba, Xalq musiqasi, ya`ni musiqa folklori ustida bo`lib e`tiboringizga kuyidagi ijodiy dasturni tinglashlikka xavola etamiz.

Xalq musiqasi ijodidan namuna.

Xalq musiqasi ashula (vokal), cholgu va vokal - cholgu asarlari Xalq ijodining tarkibiy kismini tashkil etadi. Xalq musiqasi, asosan, iste`dodli Xalq yoki professional Xalq ijrochilari, masalan, turli Xalqlardagi sozanda, xofiz, oshug, okin, baxshi, kobzar va boshqalarning san`ati orkali yashaydi. Xalq musiqasi Xalq hayotining doimiy hamroxi bo`lgan. U Xalq turmushi, mehnat faoliyati, orzu-uyllari, ijtimoiy ko`rinishini aks ettiradi. Har bir davrda musiqa asarlarining ozmi ko`pmi qadimgi va o`zgartirilgan, \shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari va kayta ishlanganlari buladi. Bunday ijod maxsuli an`anaviy musiqa folklorinining tarkibiy kismini tashkil etadi. Xalq musiqa ijodi tovushlar sistemasining asosiy tiplari, lad to`zilishi, polifaniya, garmoniya, ritm kabi badiiy ifoda vositalari hamda musiqaviy shakl va janrlarga, badiiy obrazlarga tayangan holda boyib boradi. Xalq musiqasining asosiy turlari epik asarlar, masalan, kardosh

Xalqlar ijodida ruslarda - bilina, yokutlarda - olonxo, o`zbeklarda - doston va xokazo, cholgu pyesalar, raqs kuylari, kushik va ashula, lapar va yallalar kabi turli janrlardagi vokal cholgu asarlaridan iboratdir. Musikiy Xalq ijodi yakka ijrochi (yakkaxon yoki yakkanavoz), ansabl, xor va orkestr tomonidan ijro etiladi. Xalq musiqasi bastakor va kompozitorlar ijodining muxim manbaidir.

Musiqqa ijodi o`z navbatida professional musiqqa san`ati, ayniqsa uning og`zaki an`anadagi turi bilan o`zaro chambarchas alokada rivojlanadi. Yana shuni ta`kidlash joizki, ayrim shark Xalqlari musiqqa merosida, jumladan, o`zbek, tojik, uygur, ozarbayjon, arman va boshqalarning musiqqa merosida folklor janr va turlari bilan bir katorda og`zaki an`anadagi professional musiqqa ijrosi ham shakllanib bizgacha yetib kelgan. Bular m a k o m l a r va ularga yaqin bo`lgan vokal cholgu asarlaridir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashkil etilgan milliy makom ansamblining tasvirini e`tiboringizga xavola etamiz.

Buxoro mumtoz Makom ijodiyotining vatani hisoblanadi. Makom o`zbek va tojik Xalqlarining hamkorlik san`ati maxsuli sifatida vujudga kelgan. IX - asrga kelib shakllangan va keyingi davrlarda o`z taraqqiyot boskichlarini utagan bu mumtoz meros bugungi kunda o`z ahamiyatiga molik ravishda saykallanib kelmokda. Bu mumtoz merosning xududiy - an`anaviy ijrochilik maktablari mavjud bo`lib ular Fargona - Toshkent, Buxoro, Xorazmdir. Mustakillik yillari makom ijrochiligi an`analari ma`lum taraqqiyot boskichlarini utab kelmokda. Yurtimizning barcha markaziy shaxar hamda tumanlarida makom ansanbllarining tashkillanishi va bu ijodiy dastalarga iqtidorli yoshlarni jalb etish borasida diqqatga sazavorli ishlab amalga oshmokda.

O`zbekiston Xalq artisti Abulxoshim Ismoilov rahbarligidagi "O`zbekteleradio" koshidagi makomchilar ansablining "Shark taronalari - 2003" musikiy festivalidagi chiqishlaridan ayrim lavxalarni e`tiboringizga xavola etamiz.

Hozirgi zamon ilm - fan hamda texnika rivojining sharoitida Xalq musiqasi va umuman og`zaki an`anadagi musiqqa namunalarini texnik apparatlar yordamida ularning ijro etilish muxiti va boshqa xususiyatlarini yozib olish ancha samarali

ahamiyat kasb etib kelmokda. Bu masalada respublikamizda maxsus fan - musiqa etnografiyasi, tadqiq kilish bilan boglik bo`lgan etnografik musiqashunoslik (etnomuskalogiya ham deb yuritiladi) musiqa folkloristikasi kabi fan yunalishlari buyicha bir qancha mutaxassislar shugullanib kelmokdalar. Shunday kilib Xalq musiqasi ijodi - folklori o`tmishdan bizgacha og`izdan-og`izga, ustozdan shogirdga, professional ijrochidan xavaskorga, iqtidorli va qobiliyatli san`at vakillari tomonidan davrlar osha milliy an`analar asosida shakllanib, saykallanib o`z mavkesini saklab kelmokda. Hozirgi kunimizda bunday sermuxsul, shu bilan uta murakkab ijod samarasi o`zining tarakkiy etishida yetarli sharoitda yuksalib kelmokda. Unlab, yo`zlab san`at yuldo`zlari, bastakor va kampozitorlarimiz Xalq mumtoz musiqa merosiga katta ahamiyat berib, uning kelajak avlod uchun xizmat kilishiga barcha ijodiy qobiliyatlarini safarbar etmokdalar. Xalq ijodiyotining yana bir serkirra san`at turi - Xalq teatri. Bu folklor turining paydo bo`lishidagi elementlari ovchilik, dexkonchilik, Xalq bayram va boshqa ommaviy marosimlar bilan boglikdir. Bu janrlar hozirgi kunimizgacha tarakkiy etib kelib, o`zining mavkesi bilan Xalq san`ati darajasiga kutarilgan. Agarda biz teatrining paydo bo`lishi tarixiga bir nazar salsak, u dastlabki davrlarda s o` z bilan bir katorda kushik, raqs, musiqa, akrobatika, masxarabozlik va nayrangbozlik, kugirchok uyini va boshqa ko`rinishlar xususida aralash bo`lgan. Keyinchalik jamiyat taraqqiyoti davomida ijrochi aktyorlar ma`lum soxalar buyicha mutaxassislasha borib, teatr mustakil san`at sifatida ajralib chiqkan. Xalqimiz tarixida kugirchokbozlik teatri keng rivojlanib kelganligi haqida teatrshunos olimlarimiz (M. Raxmonov, M. Kodirov va boshqalar) Xalq kugirchok teatri, kugirchoklarning ko`rinishi, ularni uynatish sistemasiga kura xilma - xil, shu bilan birga ularda ko`prok ertak, afsona va boshqalar saxnalashtirilganligi haqida ma`lumot beradilar (Raxmonov M. "O`zbek teatri tarixi" T. 1968 yil. Kodirov M. "O`zbek teatri an`analari" T. 1976 yil). Bizningcha, hozirgi kunimizda ham birgina professional kugirchok teatri mavjud bo`libgina kolmay, joylarda, tuman va shaxarlarimizda xavaskorlik kugirchok teatriining urta maktablar, lese, boshlang`ich tarbiya muassasalarida ham uchratishimiz mumkin. Xalq teatri keng ma`noda professional bo`lmasa-da,

aktyorlari malakali, iste'dodli kishilar bo'lgan. Bular qadimgi Rimda mimlar, Garbiy Ovroqada shpilmanlar, Urta Osiyoda masxarabozlar, Rossiyada skomoroxlar, shuningdek turli mamlakatlarda kugirchokboz - aktyorlardir. Xalq aktyorlari yolgiz yoki guruhlarga, tudalarga birlashib, uyushgan holda shaxar, kishlokma-kishlok yurib, tuy, sayl va boshqa ko`rinishdagi Xalq ommaviy tadbirlarda biror saxnasiz ochiq maydonlarda o`z san`atlarini namoyish etganlar. Ularning repertuaridan folklorga asoslangan pyesalar keyinchalik turli adabiy asarlarning Xalq teatriga moslashtirilgan turli variantlari urin olgan. Xalq aktyorlari ijodi asosan mehnatkashlar manfaatiga xizmat qilgan. Shu sababli ular xukumronlar tomonidan ta'kibga uchrab turgan. Kiyim va jixozlar, harakat va xolatlardagi shartlilik Xalq teatri uchun umuman folklor san`ati uchun ham xos xususiyatdir. Xalq teatrida aktyorlar uyin davomida tomoshabinlar bilan bevosita alokada buladilar. Xalq teatrining odatda na saxnasi, na dekarasiyasi bo'lgan. Unda asosan diqqat ishtirok etuvchi shaxs xarakterini ochishga emas, balki vaziyat xolatlarining kulgili va fojiviy chiqishiga karatilgan. Xalq dramasida ikki - dramatik (kaxramonlik va romantik) va komik personaj mavjud. Xalq teatri negizida professional teatri maydonga keladi. Ular an'anaviy ijro xususiyatlariga ega. Sharkda Xalq teatri asosida yaratilgan teatrlar an'anaviy teatrlar bo'lib, Xalq ijodi, raqs va pontomimolarga tayangan. Masalan, Xindistonda Katxakali va Jatra, Yaponiyada Ligag, Bugaku va No, Indoneziyada Topeng va Yang, Shri Lanka (Seylon) da Komal Urta Osiyoda masxaraboz va mukalid qabilar. Shuni aytish joizki Xalq teatrining o`ziga xos badiiy va ijro usullarining ayrim ananalari zamonaviy teatr arboblari ijodiga zamin bo'lib o`z vaqtida ta'sir etib kelgan. Shunday kilib, Xalq teatr san`ati folklor janrining tarkibiy kismi ekanligini kurib chiqish bilan o`tmishdagi ajdodlarimiz, Xalqimizning rivojlangan etnomadaniyatida yetakchi urinlarni egallab kelganligini kuramiz. Hurmatli talaba. Xalqimizning qadimgi san`at turlaridan hisobangan Xalq raqsi o`zining tarixida folklor ijodiyotining erkin namunasi bo'lib xizmat kilib kelmokda. Agarda biz raqs san`atining tarixiga bir nazar tashlasak, dastlabki raqslar kishilarni xayvonot va tabiat ko`zatilishini aks ettirgan. Ovchilik, chorvachilik bilan shugullanuvchi

Xalqlarning raqslari yovvoyi va uy xayvonlari, kushlarni xatti - harakati, kiliklariga taklidan yaratilgan. Masalan, Indonezcha - Penchak (yulbars), Yokutlarda - Ayik, Pomirlarda - Burgut, Xitoy va Xindlarda - Tovus, Ruslarda - Turna, gozcha raqslarni kursatish mumkin. Kishlok xujalik mehnati bilan boglik bo`lgan raqslar ichida latishlarda terimchilar, gusullarda utin yoruvchilar, beloruslarda esa, zigirkorlik va xokazo. Xunarmandchilik soxasi bilan ham yo`zaga kelgan raqslar mavjud, ular ukraincha bondar, nemischa shisha puvlovchilar, karellarda esa tukuvchilar va nixoyat bizning Xalqimizda esa chevarlar, kashtachilar, duppido`zlar va boshqalar mehnat turlariga mansub bo`lgan raqslar mavjuddir. Xalqimizda marosim raqslari ham bo`lgan. Kishilar raqsning sexr kuchiga ishonib kelishgan, natijada Tangriga siginish, yomon jinlarni xaydash va xokazolar. Har bir Xalqda o`z raqs an`analari mavjud bo`lganligi kabi o`zbek raqslarida kaxramonlikni, baxodirlarning jang maydonlaridagi kurashini, kilich va kamon, nayza bilan harakatdagi xolatini kursatuvchi yigitlar ijrosidagi raqsimiz mavjuddir. Bunday raqslar hozirgi kunimizda ham saxna-ekstradalarida namoyish etib kelmokda. Raqslar o`z mazmuni va ko`rinishi bilan harakatlar bilan boglikdir. Masalan, bu harakatlar Garbiy Ovrupada oyok harakatlariga asoslansa, Sharkda va Urta Osiyo raqslarida esa diqqat kul va tana harakatlariga beriladi. Yana shuni yodimizda saklashimiz kerakki, Xalq milliy kiyimlari ijro xarakterining ajralmas kismi bo`lib kelgan.

O`zbekistonda raqs san`atining ravnak topishi bilan birga yangicha saxnaviy shakl - Xalq ansablari paydo bula boshladi.

O`zbekiston zaminida yashagan Xalqlarning taklidiy va ommaviy raqslari qadimdan mavjud bo`lganligi haqida ham san`atshunos olimlarimizning tadkikotlarida o`z aksini topgan (L.Avdeyeva "Tansevalnoye iskusstva O`zbekistana".T. 1960g. ,R. Karimova "Xorazmcha raqs" T. 1975 y. , "Buxorocho raqs". T. 1977 y.) biroq xotin - kizlar orasida ko`prok yakka raqs asosiy urin egallagan.

Milliy raqs san`atimizning rivojiga katta xissa kushgan ustoz san`atkorlarimiz Usta Olim Komilov, Yusuf kizik Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarama

Turgunboyeva hamda zamonamizning buyuk artisti Muxiddin Kori Yokubov boshchiligi va raxnamoligida tashkil topgan O`zbek davlat konsert - etnografik truppasi (1926 yil), birinchi o`zbek ashula va raqs ansanbli (1937 yil), hozirda "Shodlik" nomidagi jamoa "Baxor" raqs ansanbli (1957 yil), "Lazgi" (1968 yil) ansanbli va boshqalar bugungi kunda o`zining erkin va betakror rakosalari bilan o`zbek raqs san'atini butun jahonga namoyish etib kelmokdalar.

Shunday kilib Xalq raqsi san'ati o`zbek milliy etnomadaniyatining tarkibiy kismi bo`lib o`tmishdan hozirgi kunimizgacha an'anaviy milliy xususiyatlarini saklagan holda, ma'lum bir sifatlarda bu san'at kirralarini yanada yangicha uslub va ko`rinishlarda namoyish etib, yanada boyitib Xalqimizning ma'naviy hamda madaniy merosini kelajak jamiyat uchun yetkazishga xizmat kilmokda. Bizningcha bu san'atdan baxramant bo`lmagan, umrida biror bir marotaba raqsga kul cho`zmagan, komatini go`zal bir sifatga keltirishga intilmagan ixlosmand, yosh iste'dod egasi bo`lmagan balsa kerak. Albatta bu niyat barchamizga mansubdir. Chunki Xalqimizning biror ommaviy tadbiri, bayrami, kechasi raqs axloqsiz utkazilmagan.

Folklor - Xalq ijodining sermaxsul kirralari o`tmishga borib takaladi. Bu ijodiy samara ulug siymolarimiz Beruniy, Ibn Sino, Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Mukumiy, Furkat, Nodira, Uvaysiy, Avaz Utar ugli, G. Gulom, Oybek, X. Olimjon, S. Axmad, E. Voxidov, A. Oripov, O. Matchon, M. Yusuf, va unlab mumtoz so`z ustalarining serkirra ijodi bilan o`z ravnakini topib keldi. Ularning mumtoz ijod samarasi Xalqimizning oltin meros sandigida o`z mavke'yiga yarasha urin egalladi.

Kuyidagi tamoshaviy lavxada e'tiboringizga O`zbekistonda xizmat kursatgan artist Sayyora Koziyeva hamda "Boysun" etnografik - Xalq ansanbili ishtirokida o`zbek Xalq terma - laparlaridan "Yallama yorim" yulida ijro etilgan "Aylansin yor, aylansin" asarini tavsiya etamiz. Bu Xalq termasida milliy qo`shikchilik, rakkoslik hamda biroz xazl toifadagi an'anaviy ijroning mukammal bir ko`rinishi namoyish buladi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yili 21 noyabrda kabul kilingan "Markaziy Osiyo Xalqlari madaniyati assambleyasi Xalqaro jamoatchilik harakatini rivojlantirish jamgarmasini kullab - kuvvatlash tugrisida" gi karorida shunday deyilgan: "...buyuk ajdodlarimizning asrlar mobaynida yaratilgan va noyob ma'naviy mulkimizga aylangan merosi - mushtarak milliy va umuminsoniy kadryatlarini avaylab - asrash, boyitish, mustakillik manfaatlari yulida keng targib kilish" kerakligi haqida kursatma beriladi. Albatta mustakillik sharofati bilan yetishgan yutuklarimiz hozirgi kunimizda Xalqimiz ma'naviy madaniyatining muayan kismi bulmish folklorni yanada rivojlantirish va nixoyat, bu ijodiy samara orkali yoshlarimizning jamiyatimizda yo`z berayotgan buyuk o`zgarishlarga: ijtimoiy va siyosiy, axlokiy va goyaviy xodisalardan chetda kolmay befark bulmaslikka undashimiz kerak. Xulosa kilib shuni aytishimiz mumkinki, o`zbek Xalqining o`zok tarixiy taraqqiyotida xar tomonlama rivojlanib kelayotgan Xalq og`zaki - badiy ijodini o`rganish - Xalqimiz ma'naviyati, madaniyati hamda milliy kadryatlariga bo`lgan hurmat va ehtiromni yuksaltirishga safarbar bulmogi lozimdir.

## **1.2. O'quvchilarning musiqa san'atini o'rganishda badiiy adabiyotning hozirgi zamon tushunchasi**

Kuy – ulug' ne'mat, chunki u inson qalbiga ma'naviyat ulashish, ularni ezgulikka chorlash vositasi deb etirof etilgan. Qo'shiq esa ma'lum mazmun, ma'no va mohiyatga ega bo'lgan poetik asar – she'riy matndir. Asarning mukammalligini musiqiy poetik uyg'unlik ta'minlaydi. Bu uyg'unlik bolalarning musiqiy-axloqiy madaniyati, ma'naviy dunyosini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-axloqiy an'analardan unumli va o'rinli foydalanish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ta'limiy muammoga aylandi. Mazkur muammoning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning musiqiy-poetik an'analari mazmunini aniqlash, o'zbek musiqasining yetakchi janrlari va maqomning tarbiyaviy mohiyatini asoslash hamda ularni musiqiy tarbiya jarayoniga tadbiq etish, xullas o'quvchilarning musiqiy-poetik an'analari vositasida tarbiyalashning ilmiy-pedagogik tizimni ishlab chiqish o'quvchilarning umumiy va musiqiy madaniyati, axloqiy va ma'naviy qiyofasining shakllanishiga imkon beradi.

Adabiyot – so'z san'atidir. So'z barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir. So'z qudratli narsa. Undan mohirlik bilan foydalanilsa, mo'jizalar yaratish ham, ko'ngilni tog'day baland ko'tarish ham, uni tig'dan og'irroq jarahatlash ham mumkin. To'g'risi so'z bilan tiriltirish ham, o'ldirish ham mumkin. Qachonki so'z beoqibat qoladigan bo'lsa, har tomonlama ta'sir etadigan vosita – musiqa ishga tushadi.

Darvoqe, adabiyot, so'z tugagan joydan musiqa boshlanadi. Musiqa sehriga oshno bo'lmagan kishini topish qiyin. Shunday kishi topilganda ham kuy, onang o'ziga beixtiyor jalb qiladi. Asta-sekinlik bilan uning fikrlar va hissiyotlar olamini uyg'otadi, harakatga undaydi, go'zallik dunyosiga yetaklaydi, yaratishga chaqiradi.

Baxtlar vodiysi “O'zbekiston” nomli bir jannatning kuychisi Hamid Olimjon ko'z o'ngimizdan ketmaydi. Hamid Olimjon haqida so'zlamog uning mangulikka dahldor “Baxtlar vodiysi”, “O'zbekiston”, “Har yurakning bir bahori bor”, “Nihol” kabi 200 ga yaqin she'rlari haqida “doimiy kashfiyotlarning nihoyasiz quvonchi” sifatida tug'ilgan bir daryo qo'shiqlar to'g'risida fikrlar yuritish demakdir.

Hamid Olimjon haqida soʻzlamogʻ Mamarasul Boboyev, Quddus Muhammadiy, Shukur Saʼdulla, Zulfiya, Shuhrat, Hamid Gʻulom, Turob Toʻla kabi shogirdlari haqida, oʻzlariga ustoz sanagan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi oʻnlab shoirlar haqida soʻz yuritish demakdir.

Shukronalik boʻlsinkin, mangu barhayot shoirning hayoti va ijodini bilmagan kishilar kam topiladi. Hamid Olimjon kirmagan xonadonni, uni aziz va qutlugʻ mehmonday qabul etmagan oilani topa olmaysiz. Bugun u har bir oʻzbek xonadoniga – qondosh, jondosh. U har bir oilaning oʻz farzandiga, oʻz kishisiga, oʻz kuychisiga aylangan. Shodlik va baxt bor yerda u ham bor. Yaratuvchilik va ijodkorlik bor yerda uning qalbi zarlari – tuygʻulari qoʻshiq boʻlib yangraydi, borliqqa hayotbaxsh va yoqimli ohang taratadi.

Demak, Hamid Olimjon sheʼrlaridagi musiqaviylik va uning ohangida quvnoqlik, tantanavorlikni vujudga keltirgan narsa alliteratsiya, anaphora, radif, qofiya va boshqa fonetik vositalar emas, bular hayot ohangining shoir qalbidagi ehtiroslar, tuygʻular, ohang va fikr, kechinma ohangini ifodalashga koʻmaklashuvi koʻp jihatdan musiqa notasidagi belgilarga oʻxshagan vositalar, balki eng avvalo baxtiyor xalqimizning shodlik ruhi va fikri, tuygʻularidir. Huddi shu narsalarning Hamid Olimjon tomonidan chuqur sezib, ravshan tinglab olinishi va oʻz sheriga koʻchira bilishidir. Quvnoq musiqiylik shoir sheʼrlarining mazmunida asar gʻoyasi va shoir idealida yotadi. Hamid Olimjon tabiatan nozik, ehtirosli, musiqiy odam boʻlgan. Aytish mumkinki, unda tugʻma ritm hissi boʻlgan, u qulogʻi bilangina emas, balki “qalbi bilan ham hayot zavqini tinglay olgan”.

“Oʻrik gullaganda” sheʼrining gʻoyaviy-badiiy tahlili.

a) sheʼrning matni:

Derazamning oldida bir tup

Oʻrik oppoq boʻlib gulladi.

Novdalarni bezab gʻunchalar,

Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda qurgʻur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo`lar takror,  
Har bahor ham shunday o`tadi.  
Qancha tirishsam ham u beor,  
Yillar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g`ash,  
Xayolimni gulga o`rayman.  
Har bahorda chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so`rayman.

Yo`zlarimni silab-siypalab,  
Baxting bor deb esadi yillar.  
Etgan kabi go`yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so`zlar roz.  
Men yurganda bog`larga to`lar

Faqat baxtni maqtagan ovoz:

“Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol,  
To o`lguncha shu o`lkada qol.

Umrida hech gul ko`rmay yig`lab  
O`tganlarning haqqi ham senda  
Har bahorni yig`lab qarshilab  
Ketganlarning haqqi ham senda...”

Derazamning oldida bir tup

O`rik oppoq bo`lib gulladi.

b) she`rning vazni: De – ra – zam – ning      ol – di – da      bir  
tupO` – rik    op – poq      bo` – lib gul – la – di

4 +5 =9

c) lug`at va izohlar:

tot – ta`m, maza, lazzat;

roz – 1. Maxfiy topilgan narsa, sir. 2. Dildagi orzu, tilak, dard;

tole – 1. Omad, baxt. 2. Qismat, taqdir.

Hamid Olimjonning ushbu she'ri 1937-yilning 30-martida yozilgan.

Hamid Olimjonning “O`rik gullaganda” she'rining qo`shig`ini o`rgana borishda, avvalo bolalarga she'rning yaratilish tarixini ham o`rgatib ketish maqsadga to`g`ri keladi.

Bu she'rni yaratishdan oldin Hamid Olimjon erta bahorda Qozog`istonda bo`lib, qozoq xalqining hayoti bilan tanishadi. Martning so`nggi kunlarida Toshkentga qaytadi. Shundoqqina ishxona derazasi oldida bir tup o`rik oppoq gullagan – ilhom parisining o`zginasi. Natijada badiiy realizmning yuksak ifodasi bo`lgan, shoir kechinmalarining go`zal namunasi darajasiga ko`tarilgan “O`rik gullaganda” she'ri dunyoga keladi.

Shoir lirikasining eng latif namunasi “O`rik gullaganda” shunday misralar bilan boshlanadi:

Derazamning oldida bir tup

O`rik oppoq bo`lib gulladi.

Demak, lirik qahramon baxtining borligiga yillar ham, qushlar ham, har bir kurtak ham, baxt ovozi ham imon keltiradi, tasdiqlaydi. Baxtning ijodkori bo`lgan “Umrida hech gu ko`rmay yig`lab o`tgan”lar taqdiri bilan qiyoslanadi va “Baxti mangu barqaror el”, “Har gulistonda bahor mangu” bo`lgan Vatan ulug`lanadi.

Bolalarning qalbiga ana shu biro lam hislar ko`chgandan so`ng “Har narsadan baxt mo`l o`lka”ga sodiq farzandligidan sevinchga to`lgan shoir she'rni tugatadi.

Hamid Olimjonning “O`rik gullaganda” she'riga bastakor Manas Leviyev kuy bastalagan. Hozir xalq artisti Muhabbat Shamayeva ijrosida aytilgan bu qo`shiq ko`plab tinglovchilarning sevimli asariga aylandi.

Bolalarni o`zbek xalq qo`shiqlarining musiqiy-poetik xususiyatlari haqida yangi, oldindan ma'lum bo`lmagan ma'lumot berish, notografik tasvir misollarini ko`rsatish va tahlil qilish, shuningdek, mashg`ulotlarda bolalarning musiqiy faoliyatlarini jonlantirish maqsadida turli xil uslublardan ham foydalanilgan.

Maqom musiqadagi an'anaviylik va o'ziga xoslik ham atroflicha o'rganishga loyiq. Musiqaning she'riy asosi tafakkurni, zehnni rivojlantiradi va boyitadi. Ammo, asarlar vositasida ana shu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari ham aniq ko'rsatib berilishi kerak. Bu borada yuksak mahorat bilan yaratilgan Hozir Respublikasining Davlat Madhiyasini tilga olishimiz darkor.

Madhiya – har bir davlatning bosh va asosiy qo'shig'i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o'ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi.

Hozir Respublikasining Davlat Madhiyasida jonajon mamlakatimiz Hozirning asosiy jihatlari, betakror tabiati, xalqimizning ajoyib xislatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag'ri kengligi, mustahkam iymoni jo'shqin misralarda kuylanadi, yurtimizning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi.

Mustaqillik bergan ozod, erkin turmush davlatimizning barcha jabhalariga milliy va ko'tarinki ruh, o'zbekona kolorit bilan ishlash, yashash va kuylash baxtini ato etadi, shu jumladan, davlatimiz madhiyasi ham yangitdan vujudga keldi.

Hozir Respublikasining Davlat Madhiyasi shubhasiz, Hozir xalq shoiri, O'zbekisron qahramoni Abdulla Oripov ijodining gultoji, eng sara badiiyat namunasi.

Madhiyaning dastlabki satrida “Serquyosh hur o'lkam” degan so'zlar borki, bu orqali shoir Hozirning qaynoq harorat maskani ekaniga, ana shu qaynoq o'lka elga baxt, najot bo'lishiga ishora qiladi. Darhaqiqat, ko'zda yoddan chiqib dalada qolib ketgan ketmonning sopi bahorda ko'karib chiqadigan, qopning yirtig'idan tushib qolgan urug` o'zidan-o'zi unib, o'sib, donini yegan chumchuq Makkadan ham qaytib keladigan nurhikmat zaminimiz elga baxt, najot, do'stlarga yo'ldosh, mehribon ham.

Shoir asarida “Shuhrating porlasin toki bor jahon” degan orzu-umid, yorqin tilakni aytishdan oldin, o'zining oliyjanob idealini izhor etadi va bu bilan ilm-fan, ijodga rag'bat uyg'otadi: Yashnagay to abad ilmu fan, ijod.

Bir hadisda “Soʻzda sehr, sheʻrda hikmat bor” deyilganidek, ushbu asarda ham gʻoyat katta hikmat mavjud boʻlib, bu hikmat ulugʻ yurtboshimiz Islom Karimovning “Hozir kelajagi buyuk davlat” degan dono fikrlariga hamohangdir.

Olamni mahliyo aylagan diyor!

Shu birgina satrning oʻzidayoq kelajakka ishonchning yorqin ifodasi ekanligiga kim ishonmaydi?!

Abdulla Oripov bagʻri keng oʻzbekning oʻchmas iymonini tarannum etar ekan, bu iymonning oʻchmasligiga shahodat boʻlgan ertangi tayanchni, ajdodlar ishiga sodiq vorislarni koʻra oladi, ularga nisbatan boʻlgan ishonch tuygʻusila alohida satr baxsh etadi va bu bilan ertangi kunimizning eʻtiqodi mustahkam ishonchli qoʻllarga berilayotgandek haroratli ruh uygʻotadi:

Bagʻri keng oʻzbekning oʻchmas iymoni,

Erkin yosh avlodlar senga zoʻr qanot.

Madhiyamiz tom maʼnoda faxrimizdir. Uni eshitganda dilda yurtga mehr, faxr, muhabbat uygʻonadi. Uni birgalashib kuylaymiz, shunday yurt haqida oʻylaymiz, uni asraymiz. Shunday ozod, obod, toʻkin, farovon yurtda yashayotganimizdan quvonamiz, uning ishqini bilan yonamiz. Butun dunyoga hayqiramiz, shunday yurt dovrugʻini yoygimiz keladi:

Istiqlol mashʼali – tinchlik posboni,

Xalqsevar ona-yurt, mangu boʻl obod.

Madhiya kuylayotganda oʻrindan turmoq, tek turmoq, unga baralla qoʻshilmoq, ona-yurt maqtoviga joʻr boʻlmoq, shunday jannatmakon, tinch, osuda, olamshumul mamlakat farzandi ekaningni chin qalbdan tuymoq, chuqur his etmoq lozim vas hart. Chunki madhiya – eng bosh taʼlim, eng asosiy tarbiya manbaidir. Vatanni sevmok iymondan ekan, uni sevgan uni siylaydi, oʻylaydi, kuylaydi:

Serquyosh hur oʻlkam, elga baxt, najot,

Sen oʻzing doʻstlarga yoʻldosh, mehribon.

Yashnagay toabad ilmu fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Go`zal diyorimizga bo`lgan muhabbat va hurmat bu asarning beqiyos tarbiyaviy omilidir. Hozir Respublikasining Davlat Madhiyasida inson qalbiga bevosita ta'sir ko`rsata oladigan botiniy bir sehr va joziba mavjud. Shunday qilib, bo`lajak avlodni yoshligidan boshlab o`z xalqining milliy musiqasi bilan tanishishlari musiqiy axloqiy tarbiyadagi muhim va jiddiy zaruriyatlardan biridir.

### **1.3. Boshlang'ich maktabda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari**

Tafakkur – faqat inson zotiga xos oliy bilish jarayonidir. Bola dunyo yuzini ko'rishi bilanoq voqelikdagi ayrim narsa va hodisalarni sezishi yoki his qilishi mumkin. Biroq bu paytda unda narsa va hodisalar to'g'risida fikr yuritish hali tarkib topmagan bo'ladi. U rivojlanib, tajriba ottirib borgani sari, so'z boyligining ortib borishi tufayli kishilar bilan aloqa qilishi sababli asta-sekin uning tafakkuri o'sib boradi. Demak, tafakkur bolada uning umumiy taraqqiyoti bilan bilish faoliyatining bevosita ta'siri ostidagina vujudga kelishi mumkin ekan. Shunday qilib, real borliqning sezgi organlarida idrok va tasavvurda aks etishi hamda xotirada mustahkamlanishi natijasida tafakkur hosil bo'lar ekan.

Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilarining tevarak-atrofdagi voqelikning belgi va xususiyatlarini, ularning xossalarini, qonuniyatlarini bilish va ta'lim jarayonida tushunib boradi, tafakkur faoliyatida muhim o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Aynan mana shunday vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishga san'at vositalari yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilarini badiiy rang-tasvir asarlari, badiiy so'z san'ati durdonalari, badiiy me'moriy san'at, umuman barcha san'at turlari bilan tanishtirish jarayonida ularda chuqur va mazmundor bilim olish imkoniyati paydo bo'ladi, aqliy aktivligi oshib, tushuncha va tasavvuri kengaya boradi, fikrlash doirasi, ko'lami va mazmuni ortib boradi.

Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilarini san'at asarlari bilan tanishtirib borishda bevosita kuzatish, idrok qilish jarayoni vujudga keladi va bunda narsa-hodisalar munosabatini, bog'lanishlarini kuzatish, xulosa chiqarishga o'rganib boradi.

Bolaning "Bu nima?", "Nega bunday?" degan savollariga ilmiy nuqtai nazaridan o'zlari javob topishlari kerak. Mana shunday psixologik muhim o'zgarish davrida san'at asarlari kichkintoyning eng katta yordamchisiga aylanadi. Masalan, yaxshilik va yomonlik, insonparvarlik va yovuzlik haqidagi tushunchalarining bola tafakkurida sayqallanib borishida xalq ertaklari, dostonlari, rivoyatlari, masala va risolatlari inson ongiga ijobiy ta'sir o'tkaza oladi. Bundan

tashqari bolani mantiqiy fikrlashi, to'g'ri mulohaza yuritishida san'at vositalarining o'rnini muhimdir. Masalan, televideniya o'quvchilari o'zlarining bo'sh vaqtlarini asosan televizor qarshisida o'tkazadilar. Oynai jahon orqali beriladigan "Yangi avlod" studiyasining ko'pgina ko'rsatuvlari, masalan, "Oltin toj", "O'yla, Izla, Top!" kabi ko'rsatuvlar orqali bolaga to'g'ri ko'rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to'g'ri mulohaza yuritishga ko'maklashishdan iboratdir. Masalan, 5 raqami qanday bo'laklardan tuzilgan? Bir juft so'zdan gap tuzish mumkinmi? 3 va 2 sonini yaxlitlab ko'r-chi. Meva xususiyatini so'zlab berchi. Yirtqich hayvonlar qanaqa bo'ladi? Eshitgan cho'pchagingdagi odamlarni sanab ber-chi va boshqa topshiriqlarni bolalar tomosha qilish bilan birga o'zlari ham mustaqil ravishda beixtiyor javob berishga, fikr yuritishga undaydi. "Uyga vazifa" ko'rsatuvi ham bolalarni dunyodagi narsa va hodisalarni konkretlashtirish, yaqqollashtirish jarayoni bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

O'smirlik davriga kelib ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyatida muhim taraqqiyot siljishlari yuz beradi. Boshlang'ich ta'lim muassasasi tayyorlov guruhi ma'lum taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan tafakkur o'smirlik davriga kelib o'zining yana bir yuqori pallasiga ko'tariladi. San'at vositalari yordamida bular teatr san'ati, badiiy so'z, kino san'ati va hokazolar yordamida bolalarda o'rganilishi zarur bo'lgan materiallarni analiz va sintez qilish, ya'ni analitik-sintetik faoliyat hamda abstract tafakkur jarayonlarini jadal sur'atlar bilan taraqqiy etish boshlaydi.

Ayniqsa ona tili fanining bola tomonidan o'zlashtirilib olinishida buyuk mutafakkir shoirlarimizning asarlari muhim o'rin tutadi. Adabiyotimizning boy merosi bo'lgan durdona asarlar Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilari tafakkur jarayonini jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi. Badiiy san'at asarlari yordamida Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilarida mantiqiy tafakkur o'sib boradi. Badiiy asar yordamida mustaqil fikr yuritish, aqlning tanqidiyligi, nutq madaniyati tez sur'atlar bilan taraqqiy etish boshlaydi. Bundan tashqari bolaning badiiy san'atga bo'lgan qobiliyati o'sadi, badiiy did,

ijodiy qobiliyat kamolotga ko'tarila boradi. Boshlang'ich ta'lim muassasasi o'quvchilaridagi tanqidiy tafakkurning, qat'iy mulohaza qilishning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, badiiy did va umumiy madaniyat hissining kamligi badiiy asar qiymatini yuzaki baholashga olib keladi. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib, uning qiymatini aniqlashga shoshishhollari yuqori sinf o'quvchilarining real turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmasligidan kelib chiqadi.

Boshlang'ich ta'lim muassasasi tayyorlov yoshidagi o'quvchilari badiiy san'atga boshqacharoq yondashadi. Bu ko'p tarmoqli bo'lib, ko'p masalalarni hal etishini nazarda tutadi. Jumladan, uni hayajonga solgan savollarga asarlardan javob topish, shaxsiy dunyoqarash pozitsiyasi bilan uzini qoniqtirish, personaj idealini yaratish kabilar. Berilgan bu xarakteristika o'spirin ruhiy olamining to'la shakllangan holda turmushga kirib kelishidir. Bayon etilganlarga ko'ra, o'quvchiga o'qituvchining "tayyor" bilim berishi, ularni zerikarli holatga tushurib qo'yadi. Shu sababdan, bunday ko'ngilsiz holni vujudga keltirmaslik maqsadida mustaqil fikr yuritishga undovchi yo'lni topish lozim.

Boshlang'ich ta'lim muassasasi tayyorlov guruh o'quvchilari xususiyatlaridan yana biri darslikda bayon qilingan fikr va qarashlardan foydalanmay turib, adabiy asarlarni mustaqil tushunish sari intilishdan iboratdir. Ammo bunday intilish, izlanish hamma vaqt ham badiiy did saviyasini yetarli darajada rivojlanmaganligidir. O'quvchi u yoki bu xildagi adabiy asarlarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikr yuritishga, mulohaza qilishga kundan-kun o'rganib boradi. Uning mustaqil nuqtai nazari, qarashi, shaxsiy pozitsiyasi shakllanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat o'spirinning shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va qarorga kelishining natijasi bo'lib, o'zgalarning tashqaridan bergan maslahati mahsuli emasdir.

Adabiy asarni baholash, unga nisbatan shaxsiy fikrni bildirish, munozaraga kirishishkabi xislatlarning mavjudligi aql tanqidiyligining o'zginasidir. Ayrim yuqori sinf o'quvchilarida asardagi allogoriyalarni, epitellar va metaforalarni noto'g'ri tasavvur etish hollari uchraydi. Ular shoir va yozuvchilarning bunday

voqelikning sodir bo'lmashligida ayblab, bu narsa to'qima deb davol qilib qattiq "qoralashgacha" borib yetadilar. Lekin bu tabiiy asar komponentlari qahramonlari ichki dunyosini bo'rttirib ko'rsatish ekanligini hali to'la anglab yetmaydilar. Shu sababli "falon narsa bunday bo'lmaydi" deya ishonchsizlik kayfiyatini izhor etadilar. O'quvchilar badiiy peyzaj to'g'risida ham shoir va adiblar bilan munozaraga kirishadilar. Chunki o'xshatish va taqqoslash kabi badiiy bo'yoqlar negadir ularga yoqmas emish. Asardagi juda nafis did, kuchli hissiyot bilan berilgan voqelikni idrok qilish, tasavvur etish, hayolga keltirish, fikran mulohaza yuritish holatlari ularda taajjub hislarini vujudga keltiradi. Shuning uchun katta yoshlardagi o'quvchilarda adib bilan "kelishmovchilik" namoyon bo'ladi. Aks ettirilgan voqealar juda rangsiz yoritilgandek tuyuladi. Ular "o'z pozitsiyasi"ni barbod bo'lishiga anchagina ta'sir ko'rsatishadi. Shuning uchun o'qituvchining asosiy vazifasi, o'quvchilarning tafakkurini tanqidiy sifat bilan almashtirib, ularni voqelikka odilona tanqidiy nuqtai nazardan qarashga o'rgatishdan iboratdir.

Masalan, o'z davrining shoirai zamonasi bo'lgan Uvaysiy ijodidan anor to'g'risidagi hayratomuz talqini mashhur chistonni obrazli va purmano yaratilgan:

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q nishon  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.  
Sindirub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar  
Yuzlarida parda tortig'liq, tururlar bag'ri qon.

Oddiy bir meva timsolida butun boshli zamona, ijtimoiy muhit va zamondoshlar dardini tasavvur qilish hamda uni shundayin ixcham she'rdan ifodalay olish ulkan salohiyat va jur'atdan dalolat beradi. U anorning shaklini gumbaz, anor donalarini gulgunpo'sh, anor ustidagi nozik pardani o'tmish xotin-qizlari yuziga tutilgan yopinchiq, anor donalari qontalashligi xotin-qizlar yurak bag'ri qonligi kabi obrazli ifodalarda ramziylashtiradi.

Bu ilm o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tarbiyaga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqini shu muvozanatda ushlab turadi.

Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo‘lga ruh ham so‘ladi, tana to‘siqqa uchrasa, ruh ham to‘siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta’siri bilan ruhni sog‘aytirish yordamida tana sog‘aytiriladi.

Odam Ato bilan momo Havo jannatdan quvg‘in qilinganlaridan so‘ng juda qiyinchilik bilan hayot kechira boshlagan ekanlar. Jannat ne‘matlaridan mahrum bo‘lgan odam Ato kuni bo‘yi ovga ketar ekan. Momo Havo esa egizak farzandlari bilan uyda qolar ekan. Hasan Husanlar juda yig‘loqi, injiqlikni ko‘p qilganlaridan momo Havo ularni ovit olmay o‘zi ham chaqloqlarga qo‘shilib yig‘lab o‘tirar ekan. Shunday kunlarning birida istirobda yongan momo Havo qalbiga bir ilohiy ohang kirib kelibdi. Egizaklarni ovutish maqsadida xudoga qarab nola qilibdi. Uning lablaridan ungan “olloh” so‘zi ilohiy bir ohang va navo bilan onaning yuragidagi mehr birga yo‘g‘rilib asta-sekin kuylay boshlabdi:

Otangiz ovga kettiyo,

Bolajonlarim alla.

Bo‘ling siz ham mart o‘g‘lon,

Dilbandlarim alla.

Bunday navoni eshitgan chaqaloqlar asta-sekin mudragancha uxlab qolgan ekanlar. Ana shundan beri har bir ona o‘z farzandini allalab uxlata boshlagan ekan. Chunki bunday ilohiy qo‘shiqni tinglab ulg‘aygan farzand qalbida yomonlik, yovuzlik kabi illatlar bo‘lmas ekan. Shunday ekan farzandlarimizga musiqiy ta’lim berish ularni axloqiy tarbiyasini amalgam oshirishda muhim rok o‘ynaydi.

Sharq Arestoteli Abu Nasr Forobiy “Imodali ilm” nomli risolasida “Bu fan shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatini yo‘qotgan bo‘lsa tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lmaganlarning muvozanatini saqlaydi” deb yozgan edi.

Mustaqil O‘zbekistonning porloq kelajagini bunyod etuvchi, vatan istiqboli uchun o‘z ulushini qo‘shuvchi har bir inson madaniy va ma’naviy jihatdan boy, ruhan go‘zal bo‘lishi kerak. Ozod yurtimizning ravnaqi va kelajagi yoshlarga

bog'liq. Bunda albatta, oila, bog'cha, Boshlang'ich ta'lim muassasasi va Boshlang'ich maktabdan tashqari muassasalarining roli beqiyosdir. Shaxsning rivojlanishiga salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatadigan madaniyatini yuksaltiradigan muhim omillardan biri – musiqiy ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Chunki musiqa kishini xushfazilatli, samimiy, ziyrak, ko'ngilchan, yuksak axloqiy fazilatli hamda ma'naviy madaniyat egasi bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Insonning kamolotga yetishishida musiqaning bag'oyatda kuchli ta'siri faqat shu kunlarda emas, balki odamzod taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan. Boy musiqiy merosimiz, maqomlar va xalq qo'shiqlari bir necha asrlardan buyon xalqni ma'naviy jihatdan yuksaltirishdek oliyjanob vazifani bajarmoqda.

Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, musiqiy tarbiyani insonning bolalik chog'idan boshlash lozim. Darhaqiqat, inson hayotini qo'shiqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini keng targ'ib qilish kerak. Bu zaminda xalqimiz yaratgan navolardan tortib, hozir yozilayotgan san'at asarlargacha axloqiy go'zallik uchun, turmushdagi yuksak g'oyalar uchun, hayot tarzimizga yot bo'lgan illatlarni fosh qilish uchun xizmat qiladi.

Ajoyib shifokorlarni ham ko'pchilik tanimasligi mumkin, ammo bitta yaxshi qo'shiq, yaxshi ijrochi hammaga darhol taniladi. Inson qalbini kuchli emotsional tuyg'ulari muayyan holda ro'yobga chiqadi. U tevarak-atrofdagi kishilarning darhol diqqatini tortadi. Shuning uchun ham shoirning haroratli she'rlari, san'atkorlarning dildan aytgan monologi, sozandaning sel qilib oqizuvchi kuyi tinglovchining diqqatidan chetda qolmaydi.

O'zbek musiqa san'atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, O'zbekiston hududida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Eramizdan oldingi IV asrda Iskandar Zulqarnay O'rta Osiyoni zabt etganda yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish sug'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiyliklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq xonandalari

ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo‘shiq va kuylarini, yuksak ijrochilik san’ati, shuningdek, xushnavo turli cholg‘u asboblari o‘rganib, o‘zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg‘u asboblari Yevropa xalqlari madaniyatida qo‘llanib, yangi ko‘rinish va nomlanishda tarqalgan. O‘zbek xalqining o‘z ildizlari bilan musiqa merosi monodiyani barcha xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda.

Bugungi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham Boshlang‘ich ta’lim muassasasigacha bo‘lgan yoshlikdanoq bolalarga musiqiy ta’lim berila boshlaydi. Bunday yoshda kichik guruhlardan oq musiqadan hissiy ta’sirlanishni tarbiyalash, musiqani diqqat bilan tinglash ko‘nikmalarini hosil qilishdan boshlanadi.

Turli shakldagi musiqa asarlariga qiziqish, ularni tinglashga ishtiyoq uyg‘otish, musiqadagi o‘zgarishlarni sezish, tovushning baland-pastligi, ikki-uch xil cholg‘u asboblari templarini farqlash, turli ritmlarni ifodalash, tanish qo‘shiq va pyessalarni tinglash qobiliyati va malakalarni tarbiyalash, ashula aytishga, kuychanlikka e’tibor berish, murakkab bo‘lmagan qo‘shiqlarni sof ohangda aytish, jamoa bo‘lib kuylash malakasini va ko‘nikmalarini tarkib toptirish, oddiy gimnastik raqs va obrazli harakatlarni o‘rgatayotganda musiqa va harakat birligiga rioya etishlariga diqqatini qaratish kabi ko‘nikmalarni hosil etib boriladi.

Hozirgi kunda musiqaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kelajak avlodni ma’naviy boylik, axloqiy poklik va jiymoniy barkamollikni o‘zida mujassamlashtirgan, garmonik rivojlangan kishilar bo‘lib yetishtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Umumta’lim hamda boshlang‘ich ta’lim muassasalarida olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodga bog‘cha yoshidan boshlab shakllantirishga qaratilgan. Ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaning muhim qismi estetikadir. Musiqaviy tarbiya esa estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

“Musiqqa, - deb yozgan edi V.Suxomlinskiy – tafakkurning ulkan manbasi. Musiqqa tarbiyasiz bolaning mukammal aqliy rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi!”.

Shunday ekan, musiqa bolaning axloqiy-estetik va g'oyaviy-siyosiy tarbiyasi uchun muhim vosita hisoblanadi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari o'quvchilarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish, turli janrdagi musiqa asarlari, xususan mazmunli cholg'u asarlarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari va badiiy so'z ko'pincha bog'lanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etish va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalanishadi. Ayniqsa, ayrim mazmunli musiqa asarlari tinglashda yoki kuylanadigan qo'shiq mazmunidan bolalar ongida hosil bo'ladigan tasavvurlarni yanada boyitish va konkretlashtirish maqsadida asar mazmuniga xos badiiy suratlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Turli uslublardan foydalanib o'tqazilgan har bir musiqa mashg'uloti o'quvchilarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bundan tashqari musiqaviy o'yin va pastanofkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchankil malakalarini rivojlantiradi hamda qomatini to'g'ri o'sishida yordam beradi. Aniq fanlar darslarida, masalan, matematika, fizika, ximiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning ko'proq abstract fikrlash qobiliyati va mantiqiy xotira kuchi o'sib borsin, san'at mashg'ulotlarida esa ularning obrazli fikrlash va obrazli xotirasi yaxshi rivojlanadi. Bu har ikkala psixologik xususiyatlarning parallel rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh bolaga musiqa tarbiyasi berishning asosiy vazifalari nimalardan iborat. Shuni qayt etish lozimki, musiqa mashg'ulotlarining oldiga qo'yilgan har qanday pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun eng avvalo, bolaning bir qancha komponentdan iborat musiqa o'quv qobiliyatini tinmay o'stirib borish shart. Musiqa o'quv qobiliyatini asosan quyidagi musiqa turlaridan iborat bo'ladi. Musiqa uquvi (musiqa tovushlari baland-pastligi his etish qobiliyati), temp uquvi (musiqa tovushlarining bir biridan farq qiladiga o'ziga xos usullarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

Bolalarning bu psixologik qobiliyatlari musiqaviy tarbiyaning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam amalga oshirib rivojlantirib boriladi.

O'quvchilarga musiqa ta'limini berish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- 1) Bolaning musiqaga bolgan qiziqishini oshirish;
- 2) Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarga emotsional his-tuyg'ular hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib boorish;
- 3) Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish qobiliyatini hosil qilish.
- 4) Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning elementar ko'nikmalarini hosil qilish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish;
- 5) Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosida bolalarga musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish;
- 6) Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish maqsadida badiiy obrazni o'yin va ashulalar vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy tempda yangi o'yin o'ylab topish;
- 7) Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini Boshlang'ich ta'lim muassasasi hayoti bilan bog'lash, Boshlang'ich maktabda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli bayram kechalari, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa ajralmas yo'ldosh ekanligi haqida tushuncha hosil qilish.

Boshlang'ich ta'lim muassasasigacha va umumta'lim Boshlang'ich ta'lim muassasalarida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari asosan ashula aytish, musiqa tinglash, musiqali ritmik harakatlar va bolalar yoshiga mos bo'lgan cholg'u asboblarida oddiy kuylar chalishni o'rgatishdan iborat.

Musiqa mashg'ulotini tashkil etish uchun har bir Boshlang'ich ta'lim muassasasi va bolalar bog'chalarida alohida zal ajratiladi. Zal keng, yorug', quyosh

tushadigan tomonda bo‘lmog‘i lozim. Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zalning jihozlanishi, gigiyenik talablarga javob berishiga alohida e‘tibor beriladi. Zalga musiqa mashg‘ulotlariga kerakli bo‘ladigan barcha jihozlar qo‘yiladi. Masalan, derazalarning pardalari, devorlarining rangi ochiq bo‘lishi, gullar, prezidentimizning portreti, bolalar soniga yarasha stullar, gilamlar, musiqa asboblardan pianino, rubob, doira va boshqa asboblardan namunalar, radio, televizor, magnitafon, proigrovatel, qo‘g‘irchoq teatri uchun shirma qo‘yiladi. Zal toza, ozoda, har bir mashg‘ulotlardan oldin poli nam latta bilan surtilib, shamollatishadi. Bolalar o‘yinchoqlari, musiqa asboblari ham bolalar olishi uchun qulay bo‘lgan gigiyenik talabga javob beradigan bo‘lishi lozim. Bolalar ham mashg‘ulotga yengil, oyoqlarida cheshkalari bilan kiyinib kelishlari shart. Zalning jihozlanishi har bir bayramning, mashg‘ulotning, ko‘ngil ochish soatlarining mazmuniga qarab o‘zgartirib turiladi.

Musiqa bolaga hayotining birinchi oylaridayoq ta’sir etuvchi san’atdir. Musiqaning emotsional ta’siri boshlang‘ich javob harakatlarining paydo bo‘lishiga imkon beradi. Bu harakatlarda musiqaga bo‘lgan qobiliyatlarning asta-sekin shakllanish asoslarini ko‘rish mumkin. Bolalarning bu yo‘nalishdagi o‘sislari muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun musiqa tarbiyasi bo‘yicha ishlari musiqaning xususiyatini hamda bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish lozim.

Musiqa mashg‘uloti 6 ta qismdan iborat bo‘ladi:

1. Kirish qismi.
2. Musiqa tinglash.
3. Kuylash.
4. Musiqali raqslar.
5. Musiqa jo‘rligida harakatli o‘yinlar.
6. Yakuniy qism.

Mazkur mashg‘ulot bolalar bog‘chalarida tashkil etiladi. Bu yuqoridagi qismlarning o‘rni almashtirilmaydi. Chunki bolalarning o‘zlashtirishi musiqiy rivojlanishi hisobga olingan. Mashg‘ulotning kirish qismi bolalarda tetiklik,

g'ayratlilik, mas'uliyatni sezish hissini hosil qiladi. Bu musiqa sadosi ostida yurish, yengil chopish, qush va hayvonlar harakatiga taqlid qilib yurish kabi harakatlar bajartiriladi. Yana tinch yurish bilan o'z stulchalariga o'tirishadi.

Musiqa tinglash qismida bolalar diqqati qayta to'planadi. Musiqa tinglatishning asosiy usullaridan biri: asarning mazmuni va xarakterini, ularning qanday ijro etilishiga ko'ra aniqlanadi. Xormi yoki solist kuylayaptimi, vokal musiqasimi yoki cholg'u musiqasi jaranglayaptimi, gramafon yozuvimi yoki jonli ijromi va hokazolar. O'rta, katta guruhlar bilan tinglangan musiqa haqida suhbatlar uyushtiriladi, og'zaki tushuntiriladi, musiqaning hayotiy hodisalar bilan aloqasini qayd qilish juda muhimdir.

Tarbiyachi bolalarga eshittiradigan musiqa asarlari haqida to'liq tushuncha beradi. Masalan, musiqaning nomi, mazmuni, xakteri, necha qismdan iboratligi. Tushuntirishdan keyin esa eshittirilgan musiqa asarining mazmuni bolalar esida yaxshi qoladi. Undan keyin eshittirilgan musiqa haqida bolalar bilimi aniqlanadi. Ya'ni bolalar yoshiga qarab savollar beriladi. Eshittirilgan musiqa tahlil qilingandan so'ng kuylash qismiga o'tiladi.

Dastur vazifalari bo'yicha malakalarning shakllanishini nazarda tutadi. Bularning barchasi repertuarni o'rganib borishga muvofiq murakkablashib boradi. Bulardan tashqari bolada qo'shiqchilik ijodini ham o'stirish lozim. Ashulachilik ovozi, musiqa qobiliyatini o'stirish lozim.

Qo'shiq kuylash qismida oldin o'rganilgan qo'shiqlardan bir-ikkitasi takrorlanadi. Bu vaqtda bolalar tik turib aytish qoidalariga rioya qilishlari kerak. Chunki tik turib aytganda bolalarning to'g'ri nafas olib, uni sarflashlari oson bo'ladi, keyin yangi qo'shiqni o'rganishga kirishiladi. Yangi qo'shiqning mazmunini tushuntirishdan oldin tarbiyachi suhbat metodini qo'llaydi, ya'ni bolalar bilan suhbatlashadi. Qo'shiqning mazmuni nima haqida, muallifi kim va hokazolar haqida so'raydi. Shundan so'ng tarbiyachi qo'shiqni kuylab ko'rsatadi (Bolajonlar qo'shiq sizga yoqdimi? Bo'lmasa, hozir sizlar bilan bu qo'shiqni kuylaymiz). Keyin qo'shiqning bir bandini musiqa jo'rligida o'rgatadi. (Bolajonlar,

mana qo‘shiqni ham o‘rganib oldik, keyingi mashg‘ulotimizda qolgan qismlarni o‘rganamiz. Endi esa raqsga tushamiz).

Xuddi qo‘shiqni o‘rganish jarayonida bo‘lganidek, ritmika bo‘yicha ham repertuarni asta-sekin o‘rganish lozim. Qo‘shiqlar, o‘yinlar, raqslar, ayniqsa eng murakkablarini nazarda tutadi. Shuningdek, har bir bolaning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga oladi. Ritmik harakatlarni o‘rganishda tarbiyachi faqat ko‘rsatishdangina emas, balki obrazli formada qisqa, aniq, ko‘rsatmalar formasidagi so‘zlardan ham foydalaniladi. Avvalo musiqa yaxshi ijro etiladi, so‘ngra o‘yinning qisqacha bayoni berilib musiqa yaxlit ijro etiladi, shundan so‘nggina bolalar o‘yinni ijro etishga kirishadilar. Undan keyin musiqa jo‘rligida birorta harakatli o‘yin ijro etiladi. Masalan, “Sichqon va mushuk”, “Quyosh va yomg‘ir”, “Ayiq va bolalar”, “Kim joyini tez topadi?” kabilar. Mashg‘ulotning harakatli o‘yin bilan tugallanishining sababi mashg‘ulotning oxiri qiziqarli tugaydi va kelgusi mashg‘ulotda bolalar yanada faollashadi.

## **Ikkinchi bob**

### **BUYUK MUTAFAKKIRLAR ALISHER NAVOIY,**

#### **ABDURAHMON JOMIYNING SAN'AT SOHASIDAGI ASARLARI**

##### **2.1. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda muomala madaniyatining o'rni**

Alisher Navoiy ijodi – badiiy, tarixiy, ilmiy-falsafiy asarlarining har bir satrida so‘z dur javohirga aylangan va go‘zallik bilan zarhallanib jilolantirilgan. Navoiy go‘zallikni, nafis san‘atni yuksak qadrlab, nafis san‘at insoniy ma‘naviy olam, uning kamoli uchun kalit ekanini ta‘kidlaydi. Uning yozgan she‘rlaridan birining mazmuni bunday: bizga yana bir shifo dorisi berilgan bo‘lib, uni san‘at deb ataydilar. Go‘zallik yaratuvchi san‘atkorlar chizgan rasmlar – mo‘jizakordir. Ular inson ruhiga mayin ta‘sir qilish qudratiga ega.

Navoiy o‘zining “Farhod va Shirin” dostonida Farhod devorlarni suratlar bilan bezab, ularda Shirin rasmini chizganligini, ayni vaqtda Shirinning o‘zi g‘oyat go‘zal hurparilar qurshovida ham o‘zining beqiyos husni bilan ajralib turgani tasvir etilganini hikoya qiladi.

Navoiyning adabiy, tarixiy va falsafiy asarlarida go‘zallik, nafis san‘at haqidagi fikrlar to‘lib-toshib yotibdi. Shu bilan birga uning adabiy axloqiy qarashlari “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” va “Mufradot” asarlarida yanada yorqin ifoda topgan. “Majolis un-nafois”da 450 dan ziyod shoirning hayoti va ijodi haqida so‘z yuritilib, ular ijodining eng cho‘qqisini ko‘rsatuvchi asarlaridan misollar keltiradi, ularning yutuq va kamchiliklarini baholaydi. Navoiy davrida kosiblar, hunarmandlar, ustalar, naqqoshlar, sozandalar, hofizlar, olimlar, amirlar va amaldorlar ham she‘r yozganlar. U davrda shoirlik kasb bo‘lmagan. Bular turli axloqiy nuqtai nazardagi kishilar bo‘lib, ular orasidagi “ishori fazilar”, “ermak” uchun she‘r yozadigan shaklbozlar ham bo‘lgan. Navoiy shu xil shoirlarni qattiq tanqid qiladi.

Navoiy zamonida she‘riyatning go‘zal janri keng tarqalgan edi. Ayni mahalda ruboiy, qit‘a, muammo, tuyuq, qasida va boshqa janrlar ham e‘tibordan qolmagan edi. Navoiy ana shu janrlarda ijod qiluvchi shoirlarning yutuq va kamchiliklarini misollar bilan yoritib beradi.

Navoiy badiiy soʻz sanʼatining, maʼrifiy-tarbiyaviy, hissiy-ruhiy quvvatini alohida taʼkidlar ekan, shoir-sanʼatkor xulq-atvoriga oʻrin ajratadi. Chunki odob-axloq islom axloqiyasining tarkibiy boʻlagi boʻlib, musulmon kishi hayoti va faoliyati odob qoidalari mezon bilan oʻlchanar, baholanar edi. Shu tariqa Navoiy sheʼr sohiblarining kamtarlik, himmatlilik, xushmuomalalik, saxiylik kabi fazilatlarini zoʻr qoniqish bilan taʼkidlaydi.

Navoiy 450 dan ziyod shoir, adib, tarixchi, olim, davlat arboblari haqida taʼrif-tavsif berar ekan, ular hayoti va ijodining eng muhim nuqtalarini qalamga oladi: “Mavlono Lutfiy... oʻz zamonasining malikul kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yoʻq erdi, ammo turkiyda shuhrati koʻproq erdi...”. “Qozi Muhammad ul imomiy... nazmgʻa gohi mashgʻul boʻlur erdi va ashʻor Xiri shahri orasida bor...”. “Nur Saidbek ... taʼbning ne miqdor quvvat va latofati bor ekanini shʻeridan bilsa boʻlur. Oʻqugʻon bilgay” va hokazo.

Navoiy har bir shoir ijodida misollar keltirganda, oʻsha misolning naqadar mohirona sanʼat bilan yaratilganini nozik ilgʻaydi. Tazkirada nomlari tilga olingan zotlarning hammalari zamonning oʻtkir nafasli ziyolilari boʻlgan. Shulardan elliktasi kitobat sanʼatiga dahldor kishilar ekan. Tadqiqotchi Abdumajid Madraimov bu kishilarni uch guruhga ajratadi:

1. Kitobat sanʼati ahli – xattotlar, naqqoshlar va boshqalar.
2. Kitobat sanʼatida ham iqtidorini namoyish etgan ijodkorlar.
3. Kitobat sanʼati homiylari Navoiy tazkirada yigirma toʻrt ijodkorni kitobat sanʼatiga qay darajada dahldor ekanini bevosita qayd etib, ularning mashgʻulot turi va iqtidor darajasiga baho berdai. Masalan, 1. Mavlono Yusuf Shoh. 2. Mavlono Mir Qarshiy. 3. Mavlono Jamshid va hokazolar.

“Majolis un-nafois”da mashhur musiqiy sozandalar, hofizlarlar haqida ham qimmatli maʼlumotlar bor. Oʻsha davrning mashhur sozandasi ustod Qulmuhammad haqida ushbu soʻzlarni oʻqiymiz: “Kichiq yoshida gʻijjak chorlar erdi. Qobiliyati osori ul fanda andin koʻp zohir erdi, tarbiyatigʻa mashgʻul boʻlurdi. Holo ul fan ustodlari mutaadorin aning musannifatin yod toʻtib, shogirdligiga baʼzi mubohibudurlar, tolibi ilmlikka dogʻi mashgʻuldir, oʻzga ushoq fazoyili ham bor:

ma'rifati tavqimdek, naqqoshlikdek, xatdek. Ammo ud, g'ijjak va qo'bo'zni asrida kishi ancha chala olmas, muammo qaboidni ham mazbut bo'lur".

Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida xalq qo'shiqlarining sakkiz turi haqida ma'lumot berib, ularning vazn xususiyatlarini ko'rsatadi. Navoiy musiqa ilmini Xo'ja Yusuf Burxondan o'rganib, musiqaning nazariy va amaliy qirralarini puxta o'rgangan edi. "Boburnoma"da Navoiyning mashhur asarlari sanalgandan keyin "Yana ilmi musiqiyda yaxshi nimalar bog'labdur, yaxshi naqsh (ashulali kuy)lari, yaxshi peshrav (ashulasiz kuy)lari bordur" deyiladi.

Abdurauf Fitrat "O'zbek musiqasi va uning tarixi" asaridaqadimda xonaqohlarda aytiladigan "Naqshi mullo" kuyi Jomiy asari, "Shoshmaqom"dagi "Qari Navo" kuyi esa Alisher Navoiy asari ekanini eslatib shunday yozadi: "Bu kun O'zbekistonning ko'p o'rinlarida "Qari Navo" ismli kuy bor. Bu kuyning Navoiy asari bo'lgani so'ylanadir. Mana shu ma'lumotlardan so'ng "Qari Navo" kuyining Alisher Navoiy asari bo'lg'ani ehtimoli kuchlanib qoladir. Har holda biz shu ehtimolni ko'zda to'tib "Qari Navo" kuyining notasini asarimizg'a ilova qilishni munosib ko'rdik. Navoiyning musiqiyga xizmati yolg'o'z kuylar bastalamak bilan qolmaydir. Navoiy eng buyuk musiqiy ustodlarini, eng iste'dodli musiqiy talabalarini o'z tarbiyasiga oldi. Ularning ma'lumotlarini orttirmoq uchun musiqiy risolalar yozdirdi".

Navoiyning adabiy-axloqiy qarashlari so'z san'ati va axloqiy tafakkur taraqqiysida muhim o'rin tutadi. Navoiy san'atning hayotni nafislashuv, kishilarni baxt-saodatga erishuv yo'lidagi foydalarini ro'y-rost ochib berdi. Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergan edi. U o'zining "Hamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, "Munojot", "Vaqfiya", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul lug'atayn" asarlarida hamda Abdurahmon Jomiyning "Arba'iyin" nomli asar tarjimasida "Chihil hadis" qabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil insonning obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi. Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Fan va madaniyat shaydosi, homiysi bo'lgan temuriyzoda hukmdor Husayn Boyqaro va uning o'ng qo'l amiri bo'lgan Navoiy davrida Hirot shoir va fo'zalolar, san'atkorlar maskaniga aylangan edi. Ajoyib shoir va musiqachi olim Abdurahmon Jomiy, musiqachi ijrochilar Usta Qulmuhammad, Shayx Noiy, Husayn Udiy, Najmiddin Kavkabiy va boshqalar o'sha davrning shuhrat qozongan san'atkorlari edi. Bu davrda ixtisosli musiqachilardan tashqari Navoiy va Jomiy kabi olim va shoirlar ham musiqa sohasi bilan shug'ullanib, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar. Masalan, Jomiy o'zidan oldin o'tgan mutafakkirlar kabi nazm bilan bir qatorda musiqa bilan shug'ullanib, o'zining "Risolayi musiqiy" asarini yozdi. Jomiy bu asarida musiqa san'atining tarbiyaviy ahamiyati haqida nodir fikrlar bayon qiladi. O'rta asrlar boshida Forobiy, Ibn Sino va boshqalar umuman kishi hulqiga ta'siri to'g'risida gapirgan bo'lsalar, Jomiylar musiqaning (maqomning) tarbiyaviy ahamiyati ustida to'xtaladi: "Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatdan tashqari... o'n ikki maqomdan har biri, har bir ovoz va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Ushshoq va navo insonda qudrat hamda jasurlik uyg'otadi, vaholanki, ovoz jasurlik uyg'otadi, vaholanki, ovoz bunday ta'sir kuchiga ega emas. Shu'balar orasida savbu navo ruhga shunday ta'sir etadi". Musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga oid bunday fikr-mulohazalar o'z davri uchun yangilik edi.

Jomiy "Risolayi musiqiy" asarida musiqa nazariyasi, uning turlari, ijro usullari, bahrlari va sozandalari haqida keng ma'lumot berib, musiqaning taraqqiyot davrlari xususida ham to'xtaladi. Masalan, turkiy davrni shunday izohlaydi: "Turkiy davri. To'rtta turi bor. Birinchisi – asli (og'zaki) yangi turkey.

U yigirma niqradan iborat. Alfozi (ya'ni ruknlari) ikki sababi Hafiyf (tan) orasida to'rt fosila (tananan); tan tananan tananan tananan tananan tan – mufta'ilun foilotun vaznida.

Ikkinchi – asli qadim turkey, yigirma to'rt niqra. Alfozi – asli yangi turkiy alfozining oxirgi bir fosila (tananan) orttirilgan. Uchinchisi – turkiy-u Hafiyf (yengil) o'n ikki nuqra; tan tan tananan tanan – fa'lun foilun vaznida. Uning uchta zarbi bor, birinchi sabab – u hafiyf (tan)ning “t” sida va ikki fosila (tananan) “t” larida Jomiy “Risolayi musiqiy”da pardalarni qanday belgilashni ham mufassal bayon qiladi”. Abdurahmon Jomiy inson kamolotida musiqaning ham o'z o'rni borligini alohida ta'kidlaydi. Alloma “Musiqqa haqida risola” asarini yaratar ekan o'z zamondoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini rivojlantiradi.

Avvalo olim bu asarida an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, changlar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga ta'rif beradi, musiqqa asboblari haqida ma'lumotlar keltiradi. Muhimi, musiqaning kishiga ta'siri to'g'risidadir. U musiqaning ba'zilarida insonda ijobiy ruh paydo qiladi, deydi.

*Yaxshi so'z din ko'rgaysan mehru vafo,*

*Nomunosib qo'ldin yetgay jafu.*

*Faxsh so'z din tilni xomush aylagil,*

*Balki ko'nglungdin faromush aylagil.*

*Har so'z kim sodir bo'lsa bemahal,*

*Ketgay andin obro o'yinga xalal.*

Darhaqiqat insonni yer yo'zsidagi boshqa mavjudotlardan ajratib yuksaklikka olib chiqadigan narsa bu muomila, xulq, odob, insonning ichki ma'naviy tuyg'usi va ichki go'zalligidir.

Inson ichki dunyosi, ya'ni mazmun go'zalligi, tashqi ko'rinishi shaklga nisbatan keng tushuncha bo'lib, uning haqiqiy go'zalligini belgilovchi omildir. Insoniy go'zallikni mazmun va shakl kategoriyasi bilan taqqoslasak, insonning tashqi ko'rinishi shakl bo'lib, ichki dunyosi esa mazmun tarzida o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, mazmun hamma vaqt shaklga nisbatan belgilovchi birlamchi

bo'lib, shakl ikkilamchidir. Haqiqiy go'zal kishi kamtar, odobli, xushmuomalali bo'ladi. Odoblilik va xushmuomalalik axloqiy go'zallik tushunchalari bir-biri bilan bog'liq, ularning birini ikkinchisidan ayirib bo'lmaydi. Shubhasiz odoblilik har bir madaniyatli kishining fazilati bo'lishi zarur.

Xo'sh odobning o'zi nima? Odob avvalo, kishining o'z xatti-harakat me'yorini anglashi, har bir vaziyatda o'zini tuta bilishi va sezgirlikdir. Shuningdek, sezgirlik yurish-turishda kamtarlik orqali namoyon bo'ladi. Ma'lumki, odob tarbiya samarasidir, uning asosi atrofdagilarni, o'zgalarni hurmat qilish, atrofdagilarga, kasbdoshlarga, yaqinlarga mehri bo'lish demakdir. Hayotda odobsiz kishi deb nom chiqarish qiyin emas. Kishi tanish-bilishlari oldida o'zining mansabi, shaxsiy hislatlari haqida gap ochib maqtansa yoki kino-teatrlarda va jamoat joylarda o'zini tuta bilmasa, albatta, odobsiz degan nom olish mumkin.

Odobli, madaniyatli odamlar hamisha andishali bo'lishlari, birov bilan gaplashganda hamma vaqt odob saqlab, orqa-o'ngini o'ylab, odob saqlab muomala qilishlari ham xulq madaniyati doirasiga kiradi.

Andisha asli odobning bir ko'rinishi, o'zaro so'zlashish va muomala ziynati, ko'rki, insonlarning bir-biriga mehri-muhabbatining ifodasidir. Andisha deganda biz, yana shaxs yoki jamiyat a'zolariga nisbatan g'oyat darajada sharm-hayo, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undovchi his, istiholani tushunishimiz mumkin. Andishali, xushmuomala kishilar ko'pchilikni tashkil qiladigan joyda hamisha qut-baraka, fayz-halovat, dilkashlik, quvonch, kulgu, izzat-hurmat bo'ladi. Andishali kishi o'zini har qanday salbiy xatti-harakat va isnod keltiruvchi salbiy nuqsonlardantiyadi. Xalq maqolida "Yetti o'lchab, bir kes" deyilganidek, andishali kishi har qanday nojo'ya xatti-harakat ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishini angelaydi, mumkin qadar kishilarga yaxshilik qilishni, o'zidan yaxshi nom qoldirishni o'ylaydi. Ayniqsa yoshlar orasida mehribon, xushfe'l, shirinsuxan, xushmuomalali bo'lish, el orasida xulq-odob go'zalligiga erishgan kishilar deb hisoblanadi.

Kishining xatti-harakati uning odobi, muomalasi, umuman axloqiy munosabatlarning go'zal bo'lishi, avvalo uning jamiyatimiz hayotidagi o'z o'rnini

nimadan iborat ekanligini chuqur anglashga, hayot mazmunini to'g'ri tushunib yetish darajasiga ham bog'liq.

Kamtarlik va soddalik ham insonni yuqori madaniyat sohibi ekanligini tasdiqlaydigan muhim omildir. Kamtarlik bilan o'zviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi axloqiy normalardir. Kamtarlik bu – axloqiy fazilat bo'lib, kishining jamiyatga munosabatida o'zining iste'dod va qobiliyatini kuch-imkoniyatini to'g'ri tushunishi, o'z atrofidagi turli muomala-munosabatda bo'ladigan kishining ijtimoiy mavqeini, shaxsiy fazilatlarini haqiqiy ahvolga mos baholay bilishi va o'z xulqini shu asosda ko'ra bilish layoqatidir. Shuning uchun ham kamtarlik kishilar orasidagi munosabatlarda turli odob qoidalari tarzida namoyon bo'ladi. Chunonchi, mehnat jarayonida, turmushda, jamoat joylarida kishi o'zini qanday tutishi orqali namoyon bo'ladi. Kamtarlik kishidan sharoitni tez va to'g'ri baholay olish hamda unga mos holda ish tutishni talab qiladi.

Kamtarlik – muomala me'yorini bilish demakdir. Bunga amal qilinmagan taqdirda, xushmuomalalik laganbardorlikka, talabchanlik qo'pollikka, hurmat esa shaxsga sig'inishga aylanib ketishi mumkin. Yana odobli va axloqiy madaniyatli bo'lish kishidan ko'p narsani talab etadi, chunonchi boshqa kishilarning fikrini to'g'ri tushuna bilish, uni individual xususiyatlarini anglash, kimsaning kayfiyati, his-tuyg'ulari bilan hisoblashish va boshqa xislatlarni talab etadi. Shuningdek, yana bironing jismoniy kamchiliklarini payqab payqamaslikka olishda, qo'pol muomalaga muloyimlik bilan javob qaytarishda, bironlarga kesatmaslik, g'iybat qilmaslikda o'z ifodasini topadi.

“Kamtarlikning kamoli bor”, deb xalqimiz bekorga aytmagan. Bu sinovdan o'tgan haqiqatdir. Shu to'g'risida shoir Erki Vohidovning quyidagi she'ri juda o'rinli:

*Garchi shuncha mag'rur bo'lsa ham,*

*Piyolaga egilar choynak.*

*Shunday ekan manmanlik nechun,*

*Kibru havo nimaga kerak?*

*Kamtarin bo'l, hatto bir qadam,*

*O'tma g'urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning chun,  
O'par doim peshonasidan.*

Pirovardida, jamoatchilik joylarida boshqalarga eshitarli qilib gaplashish yoki birovning ustidan kulish kabi xatti-harakatlar kishining odobsizlik va madaniyatsizligidan dalolat beradi.

Inson ichki dunyosining go'zalligi uning mehnatida, xulq-atvorida, xatti-harakatida, o'zini ko'pchilik o'rtasida tuta bilishida, kishilar bilan bo'ladigan barcha munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Dialitik materializm da mazmunsiz, shaklni shaklsiz, mazmunni mazmunsiz tasavvur etish mumkin bo'lmaganidek, kishining ichki mazmunini uning oliyjanob fikri, his-tuyg'usi, erki va hokazolari bo'lib, doim tashqi qiyofasiga, rangi-ro'yining chiroyiga, kelishgan qaddi-qomatiga, kiyinishiga mos kelmog'i kerak. Haqiqiy go'zal kishi muloyim, xushfe'l bo'lishi bilan birga, doimo jamiyat va xalq manfaatini, o'zining shaxsiy ho'zur-halovatidan ustun qo'yadi. Kishining o'zi xunuk bo'lsa ham mehnati va xushmuomalaligi uni go'zal qiladi. Inson go'zalligining mohiyatini noto'g'ri tushunadiganlar go'zallik deb o'ziga zeb beradigan tashqi ko'rinishini sun'iy lashtirib yuradigan kishilarni tushunadilar.

Kishining nutqi uning qay darajada madaniyatli ekanligini ko'rsatuvchi faktorlardan biridir. Madaniyatli odamning nutqi soda, ravon va ma'noli bo'ladi. U jumjalarning jimjimadorligini yoqtirmaydi, nutqiga "zeb" berib, o'zini alohida ajratib ko'rsatmaydi.

Yuqorida zikr etilgan dalillar insonning axloqiy madaniyati ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Inson yakka holda kishilardan ajralgan sharoitda yashashi mumkin emas. Shunday ekan, atrofdagilarni tanish yoki tanish bo'lmaganligidan qat'iy nazar kishilar bilan xushmuomalada bo'lishiga e'tibor berishi lozim.

## **2.2. Boshlang'ich ta'limda nafasat va raqs san'atining o'rni**

Pedagogikada nafasat tarbiyasi bu hayot va san'atdagi go'zallikni idrok etish, his qilish, tushunish qobiliyatini o'stirish, atrof muhitni go'zallik qonuniyatlariga muvofiq qayta yaratishda ishtirok etishni tarbiyalash, badiiy faoliyat bilan shuʻjullanish va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishdir deb ta'riflanadi.

Nafosat tarbiyasida san'atga alohida ahamiyat beriladi. U bolalarni hayajonlantirib va quvvatlantirib, ularga hayot hodisalarining ijtimoiy ma'nosini ochib beradi, ularni atrof-muhit hodisalariga sinchkovroq qarashga, birgalikda qayʻurishga, yomonlikni qoralashga undaydi. San'at vositalari yordamida estetik tarbiyalash «badiiy tarbiya» termini bilan ifodalanadi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Adabiyot va san'atning talantli asarlari milliy boylikdir». Biz shuni yaxshi bilamizki, badiiy so'z bo'yoqlar jilosi, tovush-larning ohangdorligi zamondoshlarni ilhomlantiradi, qalbimizda avlodimiz to'ʻrisidagi, uning hayajonlari va bunyodkorliklari to'ʻrisidagi (zamonamiz) xotiralarini kelajak avlodlarga yetkazadi, deb qayd etildi.

Maktab o'quvchilarini insoniy munosabatlardan yaxshilik va yomonlikni farqlay bilishga, shakl, chiziq, tovush, bo'yoqlar, go'zallikni idrok eta bilishga o'rgatish lozim. Psixolog va pedagoglarning hamkorlikda olib borgan tadqiqotlari keyingi yillarda bolalarning aqliy hamda nafasat darajalari sezilarli o'sganligini ko'rsatadi. Bu xislat ularning ilk yoshlik vaqtlaridanoq namoyon bo'ladi. Nafosat tarbiyasi fanining ajralib qolgan sohasi emas, balki uning barcha tomonlari bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan sohasidir. To'laqonli aqliy va jismoniy rivojlanish, axloqiy soflik hamda hayot va san'atga aktiv munosabat axloqiy takomillashganligi ko'p jihatdan nafasat tarbiyasiga bo'g'liq. Ilk bolalikdagi badiiy taassurotlar juda kuchli bo'lib, xotirada uzoq, ba'zan bir umr saqlanib qoladi. Maktab bolalarining badiiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun pedagog darsda turli forma hamda ko'rinishlardan ularning yoshlariga muvofiq ravishda foydalanishi zarur. Nafosat tarbiyasi zamon bilan uzviy aloqada va ko'p jihatdan u bilan belgilanadi.

Hozirda maktabda nafasat tarbiyasining quyidagi vazifalari ilgari suriladi.

1. Bolalarning go'zallikni idrok etishlari, nafasat hissiyotlari va tasavvurlarini sistemali tarzda o'stirishda san'atning barcha turlari, tabiat va turmush bunga ko'mak beradi, bevosita emosional hozirjavoblik, shodlik, hayajon, zavq hamda qiziqish uyjotadi.

2. Maktab o'quvchilarida turmush, tabiat, ijtimoiy munosabatlarda qo'lidan kelgancha go'zallikni qo'shish ehtiyoji va odatini tarbiyalab, ularning san'atdagi faoliyatlariga har tomonlama yaqinlashtirish.

3. O'quvchilarda nafasat va did asoslarini, san'at asarlarini hamda hayotdagi hodisalarni mustaqil baholay bilish qobiliyatlarini shakllantirish.

4. Bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish san'at bilan bohliq bo'lgan faoliyatlari doimo erkin zavqli intilish, ijodiy tasavvur, tashabbuskorlik bilan to'la bo'lishi kerak. O'quvchilar qancha estetik rivojlangan bo'lsa, uning badiiy malaka va ko'nikmalari shunchalik pishiq bo'ladi, uning ijodiy faoliyati yanada to'laroq namoyon bo'ladi.

Maktabda nafasat tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan ish tarbiya prosesining barcha tomonlari bilan uzviy bohliq bo'lib, uni tashkil qilish formalari juda xilma-xil va uning natijalari faoliyatning har xil turlarida namoyon bo'ladi. Bu ish turmushdagi ijtimoiy va tabiat hodisalari bilan tanishtirish orqali, shuningdek, mehnat, o'yin prosesida atrof muhitga nafasat tarbiyasi, san'at vositalari (badiiy tarbiya, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish) yordamida estetik tarbiyalashni nazarda tutadi. Maktabda bolalarning atrof-muhitga estetik munosabatini, qiziqishi va qobiliyatini o'stirishning asosiy vazifalari ifodalanib berilgan.

O'quvchilarning imkoniyatini nazarda tutgan holda egallashi kerak bo'lgan bilim, tasavvur, malaka va ko'nikmalar hajmi ko'rsatib borilgan atrof-muhitga estetik munosabatni tarbiyalash bola shaxsiga oid ko'pgina sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Bu yosh bosqichlarini aniq belgilash juda qiyin bo'lgan murakkab va davomli prosesdir. Nafosat tarbiyasiga doir ishni to'g'ri tashkil qilishda har bir yosh bolalar uchun uning taxminiy mazmunini belgilash tarbiyaning umumiy vazifalariga muvofiq keluvchi konkret talablarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu nafasat tarbiyasi vosita va metodlari tanlashda

tasodifiylik, stixiyalilik, bir tomonlamalikning oldini olishga imkon beradi, pedagogik-psixologik amaliyotda ishni plan-lashtirishda materialni muayyan izchillikda taqsimlashga, uning provard natijalarini ko'rishga yordam beradi.

Nafosat tarbiyasi dasturi idrok, tasavvur, xotirani shakllantirishga hamda hayotga aktiv munosabatning paydo bo'lishiga yordam beradi. Shu bilan o'quvchilarda qiziqish, hissiyot, tuyʻu va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan bu sifatlar namoyon bo'lishini, ularning rivojlanishini kuzatish bilan malakalarining konkret natijalarini kuzatishdan ko'ra qiyinroqdir. Bu rivojlanishning izchilligini aniqlash muhimdir. Nafosat tarbiyasi murakkab proses. Shuning uchun ham biz ba'zan «bolalarni emosional idrok etishga o'rgatish» (lazzatlanmoq, sevmok va intilmoq qobiliyatlarini namoyon qilmoq) va shu kabi ifodalarga asoslanamiz. Bunda u aynan nimalarda namoyon bo'lishini konkretlashtirib beramiz. Estetik tarbiya umumiy pedagogik tarbiya prosesidan ajralib turmaydi. Nafosat tarbiyasi bola hayotining ko'pgina tomonlariga singib ketib, bolalarning axloqiy, aqliy, jismoniy rivojlanishlari bilan uzviy boʻlanadi va ular faoliyatini tashkil qilishning asosiy formalarida: o'yin, mashʻulot, turmush, mehnat, bayram va ko'ngil ochishlarda amalga oshadi.

Dastur talablari qatorida axloqiy malakalari, tartibli kiyinish hamda yechinish, tozalik, tashqi ko'rinishni kuzatish va shu kabilar qayd qilingan. Bu talablar jismoniy rivojlanishga ham, madaniy gigiyenik malakalarni egallashga ham taalluqlidir. Biroq, axloqiy normalarni egallamay bolaning nafosat tarbiyasini tasavvur qilish mumkinmi? Bunda oddiy kundalik axloqiy ko'rinishlarni egallamay turib, nafosat sifatlarini shakllanishi deb hisoblash tabiiy emasmi? Provard natijada ular bolani ancha teran axloqiy kechinmalarga olib kelishga imkon beradi. Tushunarli va oddiylardan boshlangan talablar asta-sekin murakkablashib boradi. Shunday qilib, eng oddiy bajarish natijasida o'quvchilarni nafosat tarbiyasi har tomonlama chuqur anglashga o'rgatadi. San'at va hayotdagi go'zallikni tushunishni o'rganish uchun elementar nafosat taassurotlari, ko'rish va sezish hissiyotlarini jamlashning uzoq yo'lini bosib o'tish, emosional va bilish proseslaridan ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi zarurdir. Hozirgi kunda

dunyoda hech bir mamlakat bu faoliyatning qo'llanishi va amaliy natijasi jihatidan bizning mamlakatimizga tenglasha olmaydi. Tarixda birinchi marta ulkan ahamiyatli vazifa barcha xalqimizni yuksak madaniyatga erishtirish vazifasi ilgari surilgan. Nafosat tarbiyasi ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishda xizmat qiladi.

Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyhulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, hatti-harakatiga, hulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'ydi. Nafosat tarbiyasi ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning umumiy qismi sifatida amal qilinib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi dunyoda umumiy tarbiya maqsadi nafosat asosida namoyon bo'lgan. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topayotgan hozirgi paytda nafosat tarbiyasining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchiidan, mustaqillik sharoitida inson omilining ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan odamlarning ezgu xislat-fazilatlarini, ongliligi, faolligi ijodiy yaratuvchan qobiliyati sezilib turibdi.

Ikkinchiidan, O'zbekiston aholisining aksariyat ko'pchiligining umumiy madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib borayapti.

Uchinchiidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlarining bozor iqtisodiyotining keng o'rin egallab borayotginaligi, qonunchilikning keng tarzda rivojlanib, amal qilayotganligi fuqarolarning umumiy madaniyati, ayniqsa, nafosat madaniyati darajasining ham yuksalib borishini taqozo etadi,

To'rtinchiidan, hozirgi davr ilmiy-texnik inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga band bo'lgan odamlarning ruhiy holatini ham tubdan o'zgarishini, kasb-korlik, ijtimoiy-ruhiy, axloqiy-estetik holatini vujudga kelishini taqozo etadi.

Beshinchidan, radio, kino, ayniqsa, oynai-jahon kabi ommaviy axborot vositalarini turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot hajmini ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez suratlarda o'sishini ta'minlaydi. Avvallari estetik tarbiya o'ta tez va bir tomonlama talqin qilinardi, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilardi. Ba'zan nafosat tarbiyasiga odamlar yuksak nafosat, did-farosatni shakllantirish sifatida qarardi. Bularning barchasi badiiy nafosat tarbiyasining vazifa va maqsadlari doirasiga kiradi.

Badiiy tarbiya nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib, u nafosat tarbiyasining asosiy mazmuni va maqsad yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarning san'at vositalari yordamida shakllantirishdir, nafosat tarbiyasi bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato bo'lardi. Shuni nazarda tutish lozimki, nafosat tarbiyasi san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni voqyelikka nafosat munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Voqyelikka nafosat munosabati o'z xususiyatiga ega bo'lgan holda nisbiy mustaqilligiga ega ham bo'lib, foydali amaliy, ilmiy-nazariy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, voqyelikka bo'lgan inson munosabatining har qanday ko'rinishi nafosat mazmunidan ajralib qolsa, u asl mohiyatini yo'qotib qo'yadi. Nafosatga munosabat hayotga iste'molchilik nazari bilan qarashdan xalos bo'lish, dunyoga keng va xolis qarash, odamlarda, tabiat voqyea-hodisalarida, narsalarga, eng avvalo, jamiyat, insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ijtimoiy ahamiyati bo'lgan fazilatlarni ko'ra olish qobiliyatini tarbiyalaydi. Nafosat tarbiyasi insonning nafosat ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi.

Nafosat tarbiyasining axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, bejharazlikdan ajralmagan holada amal qiladi. Nafosat tarbiyasining mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishining asosi shundaki, mehnat

jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi. Nafosat tarbiyasi esa tabiatga bejaraz insoniy munosabatda bo'lishda, jamiyat bilan tabiat o'rtalarida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o'rnatishda namoyon bo'ladi. Estetik tarbiyaning estetik ongini shakllantirish maqsadi va vazifasi ko'proq yosh avlodga taalluqliligi nafosat ongini shakllantirish demakdir. Nafosatsiz dunyoqarash chala, biryoqlama bo'lib qolishi turgan gap. Nafosatli dunyoqarash falsafiy, axloqiy va boshqa dunyoqarash sohalaridan bahramand bo'lib, o'z navbatida, ularni ham boyitib turadi. Nafosat, eng avvalo, odamlarning nafosat didlarini shakllantirishga katta ta'sir qiladi. Shaxs o'ziga uning nafosat didi orqali namoyon bo'ladi. Nafosat didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlari, maqsad manfaatlari ruyobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baholaridagina emas, balki inson mohiyati samaralari vositasida ham namoyon bo'ladi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks topadi.

Nafosat tarbiyasi shaxs nafosat ehtiyojlarini birlashtiradi, uyjunshtiradi va hamohang tarzda amal qilish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Nafosat tarbiyasining inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishda o'rni hali beqiyosdir. Zero, insonning talab ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyhusi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyhusi shaxsiy ehtiyojining jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda qo'shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyhusida yetuklikka yetishish nafosat tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biridir. Nafosatga ehtiyoj faqat moddiy va ma'naviy go'zalliklardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratish faoliyatiga go'zallikni tadbiq qilish-ni ham bildiradi. Shu bois nafosat tarbiyasi hayot jabha-larining hammasiga o'qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish va jamoaviy faoliyatiga tadbiq etilishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, nafosat tarbiyasi bu nafosat jihatdan rivojlangan va ijodiy fani bo'lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Nafosat tarbiyasi insonparvar mohiyatga nafosat orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga tabiiy bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror

topishi jarayonida fuqarolar tafakkurini, ongini tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi, mazkur vazifa fuqarolarni ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy jihatlardan har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarini, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etadi.

Nafosat tarbiyasi omillari deb, shaxsning nafosat kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlariga aytiladi. Nafosat tarbiyasi vositalari deb, shaxsning voqyelikka nafosat munosabatini rivojlan-tirishga xizmat qiladigan shakllarini aytamiz. Nafosat tarbiyasi omillari bilan nafosat tarbiyasi vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda nafosat tarbiyasi omillari nafosat tarbiyasi vositalari vazifasini o'tashi, va, aksincha bo'lishi mumkin.

Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnikalashib borgan sari, ularning ko'pchiligi va ijodiy tabiati ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Qonun ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida ham har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi.

Shaxs hayotiga mehnatning estetik ta'sirini ko'paytirishda ishlab chiqarish jarayonlariga ko'proq estetika texnikasi(dizayn)ni keng ravishda joriy qilish kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, butun ishlab chiqarish muhitini nafosat qonunlariga mos ravishda qayta qurishni taqozo etadi. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish omili shaxsni estetik kamol toptirish bilan birga shaxsning foydali amaliy vazifalarini ham kengroq darajada bajarishga safarbar qiladi.

Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligini va sifatini oshirishni muhim omiliga aylanadi. Estetik madaniyat O'zbekiston istiqloli uchun o'ta zarur bo'lgan zamonaviy texnika va texnologiyalar, muhandislik va sanoat menejmenti tafakkurini shakllantirishni taqozo etadi. Estetik tarbiyaning eng muhim omili sifatida taqsimot, iste'mol kabi ijtimoiy munosabatlar siyosiy axloqiy munosabatlar bilan mutanosib amal qilishi muqarrardir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili bu tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib

estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Shaxs ongida tabiatning estetik qadriyatlari tuyʻusini shakllantirish inson estetik kamolotining oʻziga xos poydevoridir. Hozirig ekologik inqiroz va halokati xavfi ortib borayotgan sharoitda estetik tarbiyaning bu qirrasini tobora koʻproq ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda estetik tarbiya va ekologik tarbiya oʻrtasida azaldan mavjud boʻlgan aloqadorlik koʻproq kuchaymoqda. Insonparvarlik ruhi, shaxslarning umumiyliigi ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu yaqinlik, oʻzaro boʻhliqlik estetik tarbiya ekologik tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Ekologik tarbiya, oʻz navbatida, estetik tarbiya jarayonlarining samarali amal qilishiga zarur shart-sharoitlar yaratib berishda koʻrinadi.

Estetik tarbiya omillari qatorida maishiy turmush narsalari, turmush joy-jihozlari, xonalar va binolar joylashuvi, ularning ranglari, boʻyoqlari va boshqa narsalar muhiti alohida oʻrin tutadi. Shahar qurilishi, meʼmorchilik majmualari, turar joy dahalari, jismoniy tarbiya inshootlari hamda dam olish va istirohat boʻhlarining bir-biriga monandliigi, hamohangliigi, goʻzalligi, mosliigi, yuksak did-nafosat namunasi ekanliigi va nihoyat, foydali amaliy tomonlarining mavjudliigi ham estetik tarbiyada muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Narsalar muhitining barcha boʻlak va qismlari inson shaxsiyatini qurshab olgan holda uning kayfiyatiga, ruhiy holatiga taʼsir oʻtkazib turadi va uning his-tuyʻu muhitini yaratadi.

Estetik tarbiya vositalari sanʼatda muhim oʻrin egallaydi. Sanʼat voqyelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. Jamiyat estetik madaniyatining darajasi koʻp jihatdan sanʼat rivojining darajasi, uning ijtimoiy hayotda qanday ahamiyat kasb etishiga boʻhliq. Sanʼat estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga moʻljallanganliigi bilan dunyoga keng va ochiq koʻz bilan qarash tuyʻusini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etishi, yuksak orzu-umidlar yoʻlida ijodkorning qobiliyatini vujudga keltirish bilan izohlanadi. Agar fan insonning kasb-korlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilsa, sanʼat uning har tomonlama tabiiy qobiliyatini rivojlantiradi, dunyoga yaxlit inʼikos etishga oʻrgatadi. Sanʼat ham kasb egallashga koʻmaklashsa-da, u tor kasb-korlikda oʻralashib qolishdan xalos etadi. Ijtimoiy ongning boshqa tarmoqlariga qaraganda sanʼat inson

shaxsining har tomonlama, hamohang ravnaq topishiga ko'proq va samaraliroq ta'sir etadi.

Nafosat tarbiyasining eng muhim vositasi sifatida san'at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilishi, balki ularni yaratishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did-farosat va talab ehtiyojlarini rivojlantirishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rahbatlan-tirishga olib keladi. Nafosat tarbiyasi vositalari tizimida estetik bilimlar asoslari hisoblangan estetik nazariya ham katta ahamiyat kasb etadi. Estetik nazariya estetik tuyju, estetik did, estetik orzu, estetik ong kabi qismlarga ta'sir o'tkazadi. Shaxs estetik qarashlari uning ehtiyojiga aylana boradi, bilish doirasini kengaytiradi. San'atdan bahramand bo'lish, undan lazzatlanish uchun muayyan darajada badiiy bilimlarga ham ega bo'lish lozim. San'atga intilib yashash, badiiy ijod mahsullarini idrok etish, zavq olish qobiliyati ko'p jihatdan insonning badiiy saviya-sajiyasiga bohliq.

Nafosat tarbiyasida badiiy nazariy bilimlar va badiiy ta'lim(estetik nazariya)bilan bir qatorda san'atshunoslikning ahamiyati ham katta. San'atshunoslik bilimlari uning aniq turlari xususiyatlari va maxsus qonuniyatlari mohiyatini ochib berishga, badiiy ijodning ayrim sohalari tarixi bilan tanishishga, san'atning eng muhim yo'nalishlari va oqimlari to'hrisida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Nafosat tarbiyasining muhim vositalaridan biri adabiy- badiiy tanqid bo'lib, u hjoyat murakkab ijtimoiy maqomga ega. Adabiy tanqid bir vaqtning o'zida fanga ham, san'atga ham xizmat qiladi. Tanqidning xizmati uni shaxs estetik kamolotining beqiyos vositasiga aylantiradi. U badiiy idrok madaniyatini shakllantirishga, san'at asarlarini ishonchli tarzda baholash qobiliyatini rivojlantirishga, ularning his-tuyhuli va nazariy tomonlarini qo'shib in'ikos etishga xizmat qiladi. Adabiy-badiiy tanqid mavhum nazariyotchilikka ham, yakka did zo'ravonligiga ham yo'l qo'ymay, san'at kishini nafasiga va ilmiy nazariy asoslariga tayanib ish ko'rishga o'rgatadi.

Nafosat tarbiyasi umumiy tarbiyaviy faoliyatning maqsad, usul, vositalari tuzilishidan, shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari

uyhunjligidan, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqsagina mo'ljalidagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tashkilotlar kabi bo'hinlarda yaxlit holda amal qilingandagina kutilgan natijalarga olib keladi. Nafosat tarbiyasida oila, maktab va o'quv yurtlarining o'zaro hamkorligi ham yaxshi natijalar keltiradi.

Nafosat tarbiyasi ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan. Mustaqil O'zbekiston fuqarolarining estetik ongini yanada shakllantirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, jamiyat badiiy madaniyatini yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqs san'ati – ifodali san'at tizimida muhim o'rin tutadi. Raqs qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, dastavval u maishiy turmush bilan bog'langan ov, jang, e'tiqod timsollari edi. Raqs qadimgi odamlarni birlashtirishga, uyushtirishga hissa qo'shgan bo'lib, uning bu xususiyatlari bugungi kunda ham xalq raqslarida saqlanib qolgan.

Raqs ixtisoslashgan badiiy faoliyatning nozik va murakkab ko'rinishiga, kasb-koriga aylangan bugungi kunda u san'at turlari bilan hamkorlikda amal qiladi. Raqs musiqasiz namoyon bo'la olmaydi. Musiqa raqs to'qimasidan joy olib, uning his-tuyg'usiga ta'sir etish tizimini belgilab beradi.

Raqs san'ati teatr bilan ham chambarchas bog'liq, u tomoshali teatr san'atining muhim belgilarini o'zida mujassamlashtirgan holda badiiy qiyofalar yaratadi. Raqs uchun inson tanasining mayin, egiluvchanligi asosiy omildir. Raqsni inson tanasining musiqaviy ifodali harakatlari san'ati deyish mumkin, zero, inson tanasining raqs vositasida nafis, mayin harakatini ifodalash imkoniyati uning badiiy qiyofasi, "tili" asosidir. Musiqa – tovushlar ohangdorligi bo'lsa, raqs – bu ohangdor va qoidalashgan harakatdir. U ohangli va qoidali harakatlar vositasi orqali inson ichki dunyosini, uning eng nozik va chuqur kechinmalarini aks ettiradi.

Raqsdan ifoda ushbu darajada nomoyon bo'ladi. Tasviriy tomon unga buysonadi. Tasvir raqsdan imo-ishora ko'rinishida aks etadi. Imo-ishora san'ati mustaqil maqomga ham ega bo'lib, raqs to'qimasiga o'zviy bog'lanadi. Raqsdan imo-ishoraning ortiqcha o'rin olishi raqsning axloqiy imkoniyatlarini, ba'zan raqs qiyofaligini pasaytiradi.

Hozirgi zamon raqsi bir necha ko'rinishlariga ega; xalq va bazzm raqslari, sahna raqslari, akrobatik, vaznli, imo-ishorali raqs va boshqalar. Xalq raqslari bir vaqtning o'zida ham san'at turi, ham faoliyat turi tarzida nomoyon bo'ladi. Sahna raqsida ba'zan tasviriy tomon ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Yevropa raqs san'atining oily ko'rinishi balet raqsi hisoblanadi. Baletda raqs teatr va dramaturgiya (libretto) bilan tarkibiy birlikni tashkil etadi. Balet bir vaqtda ham san'at turi, ham sahna asaridir. Balet bir badiiy qorishmaning eng murakkab xili hisoblanadi va unda musiqa hamda raqs ta'sir kuchi mujassamlashgan bo'ladi.

Raqs inson tanasining musiqiy ifodali harakatlari san'ati deyish mumkin, zero, inson tanasining raqs vositasida mayin-nafis harakatini ifodalash imkoniyati va qoidalashgan harakatdir.

Raqs san'ati eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanib, jahondagi deyarli barcha xalqlar san'atining bobokaloni bo'lib, juda qadimiy va boy an'analarga ega. Raqs san'ati insonda gratsiya, musiqiylik va salomatlik kabi bebaho fazilatlarni tarbiyalaydi, shuningdek, psixologik jihatdan qaraganda go'zallik va mukammallikni kishida ruhlantiradi. Raqs san'ati va muxlislari musiqani shumchaki yo'zaki emas, balki yurak-yurakdan his etish, uning hissiy mohiyati va ritmik asoslarini chuqur tushunish, idrok etish yo'lida tarbiyalovchi muhim omildir.

Raqs san'ati yoshlarni musiqani chuqur his etish, musiqa olamida yashash, musiqa to'lqinlarida "so'zish" san'atini egallaydigan yuksak didli bo'lib erishadilar. O'smir va katta yoshlarda bo'lganidek bolalar raqs havaskorlik to'garaklarida ham ish eng avvalo qobilyatli bolalarni tanlab olish, ularda raqs san'atiga samimiy mehr-muhabbat uyg'otishdan boshlanib, ta'lim-tarbiya

bosqichiga o'tiladi. Bolalar raqs havaskorligi to'garagi janr va uslubiga ko'ra turlicha bo'ladi: yevropacha klassik to'garigi, o'zbek xalq raqs to'garagi, folklor ansamli va hokazo. Tarbiya usullari ham shunga qarab belgilanadi:

1. Raqs etikasi – boshmasala bo'lishi kerak. Raqs to'garagiga jalb etilgan har bir qatnashchi, har bir havaskor o'zining shu dargohga qo'ygan dastlabki qadamlaridanoq – bu erkinlik, pokizalik, axloq ekanligini chuqur his etmog'i kerak. Buning uchun har bir bola to'garak mashg'ulotlariga kelishidan oldin yuvinib taranishi, ozoda kiyinishi, tashqi ko'rinishi jihatdan havas qilarlik darajada bo'lishi lozim.

Raqs bilan shug'ullanayotgan bolalarda paydo bo'layotgan qiziqishlar va sifat o'zgarishini ko'rgan ota-onalar ham bunga hayrixohlik ko'rsatib, ularga axloq tarbiyasi ruhida tarbiyalash jarayonida amaliy yordam ko'rsatishlari kerak.

2. Raqs san'atiga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, kuchaytirish maqsadida to'garak qatnashchilari o'rtasida raqs ijodkorlari, uning jonkuyar o'qituvchi, raqs ustalari va tarbiyachilari haqida mashg'ulot, suhbatlar o'tkazish, raqs namoyondalari bilan tanishtirish, uchrashuvlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. To'garak qatnashchilariga raqs nihoyatda o'ta nozik san'at turi ekanligini, unga juda katta mahorat, mehnat talab qilinishini tushuntirish lozim.

Havaskorlik raqs san'atida ijodkorlik masalasida alohida ijodkorlik masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Toki har bir havaskor, raqs san'ati to'garagi faqat ma'lum harakatning qaytarig'idan iborat bo'lmay, balki haqiqiy ijod maskani ekanligini anglasinlar, qalbidan his etsinlar.

O'zbek xalq san'atining eng yaxshi namunalari har doim zamonaviyligi, hozirjavobligi, xalqchilligi bilan xarakterlanib kelgan. Professional san'atda ham, havaskorlik jabhasida ham san'atkorlarimiz mislsiz boy an'alarimizga, harakat, usul, uslublarga ega bo'lgan klassik merosni o'zlashtirishga alohida etibor berib kelganlar va xayrli rivoj topmoqda. Xuddi maqom san'ati va milliy arxetekturada bo'lgani kabi, o'zbek klassik va folklor raqs san'ati ham mislsiz jilva, axloq, qochirim va ifoda uslublariga boyki, ularda chuqur, o'zlashtirmay turib, raqs san'ati rivojlantirish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Biroq Tamaraxonim,

Mukarrama Turg'unboyeva, Qundo`z Mirkarimova, Roziya Karimova, Galiya Izmaylova, Isoqxon Oqilov kabi yetakchi san'atkorlarimizning folklor va klassikani chuqur egallaganliklari va misilsiz xazina tajribalari bugungi raqs havaskorlari uchun saboqlar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bolalar raqs havaskorligi uchun raqs ustalari yaratgan boy madaniy meros hamda xalq folklorlari bitmas-tugamma mavzu, shakl, to`zilish, xususiyat va yo`nalishlar beradi. Ulardan foydalana olish katta san'at bo'lib, havaskorlik rahbarlarini chuqur izlanishlarga da'vat etadi.

## XULOSA

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi inson omiliga juda kata ma'no, buyuk ma'no beradi: maqsad va strategiyadan tortib to ta'lim-tarbiya jarayonining hamma qirralariga oid aniq dasturlar majmuasigacha har biri nagizida inson asosiy omil hisoblanadi. «...hayotimizni hal yetuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor qonun loyihalari ham bor», -degan yedi muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyatidan rivojlangan davlatlar sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar, fidoiy insonlarni tarbiyalab yetishtirishda boshlang'ich maktabda axloqiy tarbiyalashni yanada yuqori bosqichga ko'tarish, uning tarbiya uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyada chuqur islohotlar o'tkazilmay turib amalga oshirib bo'lmasligi hammaga ayon. Shu sababli Prezidentimiz Islom Karimov tarbiya jarayonidagi ishlarga katta e'tibor bilan qaradi.

San'at vositalari orqali maktab o'quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalash, yosh avlodga san'at vositalari asosida ta'lim-tarbiya berish masalasi har tomonlama muhimdir. maktab o'quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalashda san'at vositalari ularning dunyoqarashlarini keng ma'noda shakllantirish va shu bilan boshlang'ich maktabda o'quvchilarini buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarining asarlarida san'at masalasi, komil insonni tarbiyalash haqida ajoyib fikrlar mavjuddir hozirda boshlang'ich maktabda o'quvchilarining ma'naviy-ma'rifiy tushunchalari va shu bilan birga yoshlarga axloqiy tarbiyani keng ma'noda ularga singdirish hozirgi

---

<sup>2</sup> .Каримов И.А. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури бўйича Олий мажлисининг тўққизинчи сессиясидаги нутқи.// ЎХХалқ сўзи, 1997 йил 30 август.

vaqtning asosiy masalasi hisoblanib, bu yoshlarimizning axloqiy tarbiyasini san'at, ya'ni folklor musiqa san'ati orqali dunyo qarashlarini shakllantirishni ko'ramiz.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilarida san'at vositalari orqali axloqiy tizimining asosiy komponentlari, shaxs prinsiplari, o'quvchilarda dunyoqarash g'oyalari majmuini hosil qilish axloqiy idealini tarkib toptirish, o'quvchilarni ijtimoiy foydali ishlarga faoliyatlarini jalb etish, yoshlarning bilim olishi, bolalar jamoasi hayotida axloqiy normalarni qaror toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalash protsessiyasini tashkil etish, Boshlang'ich maktabda o'quvchilarda aktiv hayotiy pozitsiya tarkib toptirish va uning namoyon bo'lishi uchun mikroiklim, shart-sharoit yaratish; o'quvchilarda ma'naviy ehtiyojlar, qiziqish tushunchalarini shakllantirish, ularning ijobiy qobiliyatlarini jamiyatga foyda keltirish nuqtai nazaridan tadqiq etish; o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish; axloqiy odatlarni tarbiyalash shaxsning tarkib topishida eng qiyin va eng muhim jarayon hisoblanadi.

Asosiy maqsad boshlang'ich maktabda o'quvchilarini san'at orqali axloqiy tarbiyalash bu yoshlarimizning har tomonlama dunyoqarashlarini keng ma'noda shakllantirish. O'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda, ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda madaniyat va san'atning o'rni juda katta bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilarida san'atning mohiyatini uning har tomonlama yoshlarning axloqiy tarbiyasini garmonik ravishda olib borishi, o'quvchilarni ma'naviy, marifiy, axloqiy tarbiyasini shakllanishini ko'ramiz. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni umuminsoniy tarbiyalashni tashkil etishdagi xarakterli xususiyat uning ilmiy ravishda ishlab chiqilgan dasturiga muvofiq amalga oshirishdan iborat.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilarining tafakkurini o'stirishda san'at vositalarining o'rni beqiyosdir. Tafakkur yuksak darajada tashkil topgan miyaning mahsulidir. Boshlang'ich maktabda o'quvchilari tafakkurini rivojlantirish uchun ularda hamma vaqt sistemali ravishda mantiqiy tafakkur usullarini tarkib topishi zarur. O'quvchilarda moddiy dunyo to'g'risidagi shaxsiy fikrlarni, mulohazalarni,

mavjud qarashlarni tarkib toptirishda tafakkurni taraqqiy ettirish mumkin va shu bilan birga o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasini rivojlantirib borishi mumkin.

Boshlang'ich maktabda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari bu kelajak avlodni axloqiy tarbiyasini shakllantirishdan iborat. Bu bilan biz ularning axloqiy didlarini, madaniyatini keng ma'noda ijobiy tomonda bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Musiqa san'ati o'quvchilarning tarbiyasiga juda katta ta'sir etish bilan birga ularning dunyoqarashlarini, axloqiy tarbiyalanganlik darajasining ijobiy bo'lishiga yordam beradi. Jajji bolajonlarimiz raqsga tushishni, ashula aytishni juda yaxshi ko'radilar, bu ularni odob va madaniyatini o'stirishda, yangi va yaxshi yo'l ochadi.

XV asr jahom ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy xijriy 844-yil ramazon oyining 17-kuni (1441-yil 9-fevral)da tug'ilgan. Alisher Navoiyning "Majolis un nafas", "Hamsa", "Hayrat ul-abror" (yaxshi kishilarning hayratlanishi ma'nosi), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saba'i Sayyor", "Saddi Iskandariy", "Mahbub ul-qulub" va yana boshqa ko'p asarlarida san'at, musiqa, insoniylik haqidagi asarlari o'quvchilarimizni axloqan va ma'nan boy inson bo'lib yetishishlarida katta o'rin tutadi. Shu bilan buyuk allomalarimiz taxalluslari Navoiy – bu jamlikning eng asosiy turlaridan hisoblanib, sevgi-muhabbat, odamiylikni kuylovchi ma'nosini anglatishini o'zida chuqur mazmun bor.

Buyuk alloma Jomiy Shohroh hukumdorligi davrida – 1414-yil 7-noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Jomiyning buyuk asarlari san'at sohasining tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlaridir. "Risolayi musiqiy", "Nafosat ul-uns", "Lujjat ul-asror", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", "Salmon va Absal", "Tarxi rubiyot", "Risolayi qariya" va boshqa ko'p asarlari san'at yo'lida yozilib, insonni – maktab o'quvchilarining axloqiy tarbiyasi shakllanishiga katta ijobiy tomonlarini ko'rsatib bergan.

Yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq XIV sessiyasida so'zlagan nutqida shunday jumlar bor: "Biz qandaydir bechora, kimningdir yetaklashiga muxtoj bo'lgan davlat yoki xalq emasmiz. Biz

koʻhna va betakror tarixga ega boʻlgan, dunyoni hayratga solgan ulugʻ mutafakkir va sarkardalarning vorislarimiz va buyuk davlat qurishgan bel bogʻlaganmiz!”. Haqiqatdan ham butun yer yoʻzida ahamiyatga ega boʻlgan badiiy sanʼat asarlarimiz, Kamoliddin Behzoddek buyuk ustozning rang-tasvir asarlari, hozirgacha ham dunyoni hayratga solgan Registon, Shohi Zinda, Goʻri Amir, Ulugʻbek, Sherdor, Tillakori madrasalari betakror meʼmoriy sanʼat obidalari xalqimiz azaldan yuksak did, maʼnan boy, axloqan yuksak tarbiyalanganlik darajasini koʻrsatib turuvchi obidalar hisoblanadi.

Umuman bitiruv ishida men boshlangʻich maktabda oʻquvchilarini sanʼat orqali axloqiy tarbiyasini yaxshilash boʻyicha mavzuning ilmiyligi, dolzarbligi hozirgi yoshlarimizning axloqiy tarbiyalarini garmonik ravishda taraqqiy etishda qilingan muhim amaliy va ilmiy ishlar toʻgʻrisida yoritib berganman.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent, 1996 1-jild.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent, 1997.
3. Umarov. Estetika. –Toshkent, 1995.
4. Estetik tarbiya asoslari. –Toshkent, 1998.
1. T.N.Qori-Niyoziy. Hayot Boshlang'ich ta'lim muassasasi –Toshkent, Fan, 1970.
6. Murtazo Mudarrisi Geloni. Ma'rifat kaliti, Sarvat, -Dushanbe, 1992.
7. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Maxsus kurs dasturi, -Toshkent, Universitet, 1997.
8. Abu Rayhon Beruniy. Tarvixolar, Javohirot kitobidan, -Toshkent, Meros, 1991.
9. Abu Rayhon Beruniy. Feruza, Javohirlar haqida naql va hikoyatlar, - Toshkent, Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
10. M.N.Xayrullayev. Farobiy, -Toshkent, O'zbekiston, 1991.
11. Abdulahad Muhammadjonov. Temur va temuriylar saltanati, Tarixiy ocherk, Qomuslar bosh tahririyati, 1994.
12. Turg'un Fayziyev. Mirzo Ulug'bek avlodlari, -Toshkent, Yozuvchi, 1994.
13. A.Abdurahmonov. Ulug'bek akademiyasi. Qomuslar bosh tahririyati, - Toshkent, 1993.
14. Haydar Aliqulov. Jaloliddin Davoniy. –Toshkent, O'zbekiston, 1992.
15. G'aybulloh as-salom saydi umr. Tolibnoma (Seni o'ylayman bolam), Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, -Toshkent, 1996.
16. S.Mirzaahmedova. Odob oltindan qimmat –Toshkent, O'zbekiston, 1990.

17. Ulfat Mahkamov. Axloq-odob saboqlari, -Toshkent, Fan, 1994.
18. Ya.I.Kalantarov. Uch xalq hikmatlari. –Dushanbe, Adib, 1989.
19. Sharifa Abduraxmonova tarjimasini. Tafakkur gulshani, -Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
20. U.Qoraboyev. O'zbekiston bayramlari. –Toshkent, O'qituvchi, 1991.
21. N.A.Vetlugina tahriri ostida. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya. –Toshkent, O'qituvchi, 1981.
22. V.Suximlinskiy. Bolalarga jonim fido. –Toshkent, O'qituvchi, 1984.
23. Naim G'aibov. Ijtimoiy hayot va san'at –Toshkent, O'zbekiston, 1998.
24. M.M.Xayrullayeva. O'rta Osiyoda Uyg'onish davri madaniyati, -Toshkent, Fan, 1994.
25. Anvar Karimov. Inson ziynati –Toshkent, Yosh gvardiya, 1972.
26. M.Imomnazarov. Milliy madaniyatimizning takomil bosqichlari. –Toshkent, Sharq, 1996.
27. E.Jo'raqulov., S.Raximov. Abu Rayhon Beruniy-«Ruhiyat va tarbiya tarbiya haqida». –Toshkent, O'qituvchi, 1992.
28. Ya.Shermuxammedov. Yaturmuxammedov. Xulq va muomila madaniyati. –Toshkent, O'qituvchi, 1974.
29. E.Roziyev. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi. –Toshkent, O'qituvchi, 1980.
30. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari, -Toshkent, O'qituvchi, 1995.
31. S.Inomxo'jayev., L.Xo'jayeva. Badiiy so'z san'ati, -Toshkent, G'.G'ulom nashriyoti, 1972.
32. O.Musurmonova. Hayot va turmush odobi dasturi. –Toshkent, 1993.
33. Hasan Yusupov. O'rta Osiyo mutafakkirlari musiqa tarbiyaotining tarbiyaviy ahamiyati. –Samarqand, 1993.
34. I.V.Grebnikov tahriri ostida. Oilaviy hayot etika va psixologiyasi, -Toshkent, O'qituvchi, 1995.
35. T.Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi, -Toshkent, O'qituvchi, 1981.

36. S.X.Yo'ldosheva. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va tarbiyaining rivojlanishi, -Toshkent, O'qituvchi, 1985.
37. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. Tarbiyaviy ish metodikasi, -Toshkent, O'qituvchi, 1991.
38. O.Hasanboyeva. Pedagogika tarixidan Xresto-matiya, -Toshkent, O'qituvchi, 1993.
39. K.Hoshimov., Safo Ochil. O'zbek xalq pedagogika antologiyasi, -Toshkent, O'qituvchi, 1995.
40. A.Munavvarov tahriri ostida Pedagogika –Toshkent, O'qituvchi, 1995.
41. KarimovI.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari –Toshkent, O'zbekiston, 1998.
42. Karimov I.A. XXI asr bo'sag'asida... –Toshkent, 1997. 327 b.
43. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent, 1998, 61 bet
44. Borev Yu. Estetika, -Moskva, 1998, 498-bet.